

O'QUV-USLUBIY  
MAJMU'A

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YURIDIK KADRLARNI  
XALQARO STANDARTLAR  
BO'YICHA PROFESSIONAL  
O'QITISH MARKAZI



YURISPRUDENSIYA

2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK  
KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO‘YICHA PROFESSIONAL  
O‘QITISH MARKAZI**

## **YURISPRUDENSIYA**

qayta tayyorlash va malaka oshirish  
yo‘nalishi

**“FUQAROLIK - HUQUQIY FANLAR”**

moduli bo‘yicha

**O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2022

**Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

O.Oqyulov – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

**Taqrizchilar:**

E.Musayev – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrası dotsenti v.b., yuridik fanlar nomzodi

U.Shorahmetova – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrası dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

*O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining  
20\_\_-yil \_\_\_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## **MUNDARIJA:**

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>14</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>23</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>61</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>67</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>75</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>80</b>
<b>VIII. TAQRIZLAR.....</b>	<b>83</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4732-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF–5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yana-da kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3151-son, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Jamiyatni demokratlashtirish sharoitida fuqarolik-huquqiy fanlar to‘g‘risida qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarining bilimlarini takomillashtirish, ushbu soha muammolarini aniqlash, tahlil etish va baholash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek fuqarolik-huquqiy fanlarning asosiy masalalari yuzasidan chuqur bilim olishni ta’minlash hamda pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash, o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda o‘quv jarayonini fan va amaliyot bilan

samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish fanning maqsadi va vazifalarini tashkil etadi.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Fuqarolik-huquqiy fanlar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- fanning nazariyasi, qonuniyatlari va asosiy tamoyillarini;
- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohalariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;
- fuqarolik-huquqiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos jihatlariga, ushbu fanlar bo'yicha modulli o'qitish tizimi va uning qismlariga, ma'ruza o'qishning interfaol usullarini ushbu fanlaran ma'ruza o'qishda qo'llashni, keys-stadi asosida dars o'tishni;
- huquqiy fanlar bo'yicha innovatsiyalarni, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublarini;
- o'quv jarayonida nazariy tayyorgarlikni huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'lashni;
- huquqiy axborot tizimlarini qo'llash metod va vositalarini bilishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohalariga tegishli fanlarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va tahlil qilish;
- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohalariga oid qonunchilik normalarini, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni o'quv jarayonida qo'llay olish;
- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohalariga tegishli fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiiq etish va huquqiy fanlarni o'qitishda ta'lim berishning modulli tizimidan kengroq foylanish;
- huquqiy fanlarga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash, tahlil qilish va huquqiy fanlarni o'qitishda amaliyot materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;
- respublikamizdagi va xorijiy davlatlardagi huquqiy fanlarga tegishli ilmiy yutuqlarni, maxsus adabiyotlarni va boshqa axborotlarni o'rganish;

- fuqarolik-huquqiy fanlar doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'limni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohaslariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

- sud hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini moddiy huquq nuqtai-nazaridani tahlil qila olish;

- huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunish, tadbiq etish va o'quvchilarga munosib yetkazib berish;

- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohaslariga oid xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qila olish;

- kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalaridan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- fuqarolik huquqi va protsessi hamda yuridik ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liqligini, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiyaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

- huquqni qo'llash amaliyotiga, o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish;

- o'quv jarayonida ta'lim berishning modulli tizimini qo'llagan holda talabalarda tizimli mushohada yuritish, vaziyatni baholay bilish, optimal qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ularda yuridik faoliyatning tegishli sohaslarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish;

- maxsus fanlarni o'qitishda kazu va muammoli savollar tuzish kompetensiyalarini egallashi lozim.

## **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Fuqarolik-huquqiy fanlar” moduli ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, keys-stadi, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Fuqarolik-huquqiy fanlar” moduli o‘quv rejadagi “Ma’muriy-huquqiy fanlar”, “Jinoyat odil sudlovining asoslari” kabi modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar fuqarolik-huquqiy fanlarga oid muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.



## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqi va biznes huquqining o'rnini aniqlash	4	2	2	
2.	Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish	4	2	2	
3.	Bitimlarning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini huquqiy tartibga solish	6	2	4	
4.	Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari	2		2	
5.	Maxsus iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari	2		2	
6.	O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar	4	2		2
7.	Pandemiya va favqulotda sharoitlarda biznes, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish	4	2		2
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>4</b>

### BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqi va biznes huquqining o‘rnini aniqlash**

Zamonaviy sivilistika va xususiy huquqda fuqarolik huquqi va biznes huquqining o‘rni va ahamiyatiga oid yondashuvlar. O‘zbekistonda sivilistika maktabining shakllanishi va rivojlanishi. Xususiy huquqqa oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yo‘nalishlari.

### **2-mavzu. Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi va turlarini misollar bilan tushuntirish. Fuqarolik kodeksi va maxsus qonunlarda tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllaridagi nomuvofiqliklarni tahlil qilish, shunga oid kazuslarni keltirish. Yangi Fuqarolik kodeksida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalarini ko‘paytirish va kam tuziladigan tashkiliy-huquqiy shakllarni optimallashtirish masalalarini jadval ko‘rishida aks ettirish.

### **3-mavzu. Bitimlarning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini huquqiy tartibga solish**

Bitimlar haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarni bayon etish. Nizoli bitim va uning turlarini fuqarolik sudlari amaliyotidan misollar yordamida tushuntirish. Iqtisodiy sudlar amaliyotidan o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim va uning oqibatlarini qo‘llash bilan bog‘liq kazusni tahlil etish. Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish istiqbollari muhokama etish.

### **4-mavzu. Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari**

Reklama tushunchasi va reklamaga doir asosiy talablarni taqdimot ko‘rinishida namoyish etish. Reklama to‘g‘risidagi qonunchilik rivojlanishini qiyosiy jadval shaklida taqdim etish. Reklamani huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar sharhini tanqidiy tahlil etish.

### **5-mavzu. Maxsus iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari**

Maxsus iqtisodiy zonalar tushunchasi va turlarini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslagan holda tushuntirish. So‘nggi yillarda erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish amaliyotini statistik ma‘lumotlarga asoslanib tahlil qilish. Maxsus iqtisodiy zonalardagi maxsus huquqiy rejim mohiyatini aniq misollar bilan tushuntirish.

Maxsus iqtisodiy zonani tashkil etish va uni boshqarish tartibini takomillashtirish masalalarini muhokama qilish.

**6-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar**

Tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslar umumiy tavsifini taqdimot ko‘rinishida namoyish etish. Xalqaro reytinglar va indekslar mezonlarini tahlil qilish. So‘nggi yillarda iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)da O‘zbekistonning o‘rnini qiyosiy-tanqidiy o‘rganish.

**7-mavzu. Pandemiya va favqulotda sharoitlarda biznes, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish**

Favqulotda sharoitlarda biznesni huquqiy tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslarini tahlil qilish. Favqulotda vaziyatda biznes subyektlariga nisbatan davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlarga oid materiallarni izlash. Favqulotda sharoitlarni biznes partnyorlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri, fors-major holatlarni o‘rganish.

**KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

Tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslar umumiy tavsifini taqdimot ko‘rinishida namoyish etish. Xalqaro reytinglar va indekslar mezonlarini tahlil qilish. So‘nggi yillarda iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)da O‘zbekistonning o‘rnini qiyosiy-tanqidiy o‘rganish. Favqulotda sharoitlarda biznesni huquqiy tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari. Favqulotda vaziyatda biznes subyektlariga nisbatan davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar. Favqulotda sharoitlarni biznes partnyorlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri, fors-major holatlar ko‘chma mashg‘ulotning mazmunini tashkil etadi.

## O'QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta'lim berish ko'zda tutilgan:

- binar ma'ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- On-line ma'ruza;
- trening, videotrening;
- kichik ma'ruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);
  - klaster, sinkveyn (axborot yoki biron-bir tushunchani qisqa bayonini tuzish ko'nikmani shakllantiradi);
  - kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);
  - blis o'yin, qora quti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo'l-yo'lakay aniqlashga yo'naltiriladi).

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 592 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 400 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi//[https:// www.prezident.uz/uz/lists/view/3324](https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3324).

### **II. Normativ huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1931443>.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/2006789>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-son qarori // <https://lex.uz/docs/4215422>. 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi F-5464-son Farmoyishi // [lex.uz](http://lex.uz).

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://www.lex.uz/docs/4737511>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4838762>.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism / Mualliflar jamoasi. Prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYU, 2016. 312 b.

2. Imomov N. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar). – Toshkent: TDYUU, 2017. 150 b.

3. Tadbirkorlik (Biznes huquqi). Ma’sul muharrir H.Azizov. – Toshkent:TDYU, 2018. 238 b.

4. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 684 b.

#### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

1. Catherine Elliott & Frances Quinn. Contract law. Longman (2011). (Elliott & Quinn series).

2. Cees van Dam. European tort law. Oxford University Press (2013) Second Edition published in 2013.

#### **V. Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://www.tsul.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.
3. <http://www.lex.uz>.
4. <http://www.minjust.uz>.
5. <http://www.sud.uz>.
6. <https://www.nrm.uz>.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### Materialni og‘zaki bayon qilish metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish o‘qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o‘ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o‘qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda o‘qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo‘yish, rejani e‘lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi.

### Suhbat metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni: ular e‘tiboriga havola etiladigan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid obyektlarni o‘zaro taqqoslash, puxta o‘ylash va savollarga to‘g‘ri javob tayirlashdan iborat. O‘qituvchining rahbarligi: mavzuni qo‘yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to‘ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoèn bo‘ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o‘zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

### “SWOT-tahlil” metodi


**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	• Kuchli tomonlari
W- (Weakness)	• Zaif kuchsiz tomonlari
O- (opportunity)	• Imkoniyatlari
T-(Threat)	• To‘siqlar

## “Xulosalash” (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma‘ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi




### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish



mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).



### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>

<b>4-bosqich:</b> yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<b>Keys</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>
---	--

### “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F	• Fikringizni bayon eting
S	• Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• Ko'rsailgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• Fikringizni umumlashtiring

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### **“Insert” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2- matn</b>	<b>3- matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushu-narsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoh-lanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni

mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **“Blis-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.


### **“Munozara” metodi**

Ta’lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

**Masalan: Ma’muriy ihtiyoriylik ma’muriy hujjat qabul qilishga qanday ta’sir qiladi?**

**Munozara usulidan quyidagi maqsadlarda foydalanish  
mumkin.**



**“Pinbord” metodi**

Pinbord inglizchadan: pin–mustahkamlash, board–doska ma’nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ra-vishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

**“Portfolio”metodi**

“Portfolio” – ( ital. portfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglov-chilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

## **Muammoli metod**

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1. Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqi va biznes huquqining o‘rnini aniqlash

##### Reja:

1. Xususiy huquq tushunchasi va unda fuqarolik huquqining o‘rni.
2. Xususiy huquq tizimida biznes huquqining o‘rni.

**Tayanch iboralar:** *xususiy huquq, fuqarolik huquqi, biznes huquqi, fuqarolik huquqi predmeti, biznes huquqi predmeti*

*Dars mashg‘ulotlarini quyidagi ma’lumotlar asosida o‘tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. *Dars mashg‘uloti uchun manbalar izlashda tayanish lozim bo‘lgan ma’lumotlar;*
2. *Ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rishda tayanish lozim bo‘lgan materiallar*

#### 1. Xususiy huquq tushunchasi va unda fuqarolik huquqining o‘rni

Xususiy huquq — umumiy manfaatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi ommaviy huquqdan farqli ravishda shaxsiy manfaatlar, shaxsiy munosabatlar va mulkiy faoliyatda fuqarolar va yuridik shaxslarning mustaqilligi va tashabbuskorligini tartibga soluvchi huquq sohalari yig‘indisini anglatuvchi tushuncha. Xususiy huquq yadrosini mulkiy va u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqi, shuningdek savdo huquqi (u amal qiladigan davlatlarda) tashkil etadi. Xususiy huquq — bu sohalar majmui — amal qilayotgan huquqning tarkibi qismi. Xususiy huquq fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Xususiy-huquqiy munosabatlar bir qator muhim belgilari bilan ajralib turadi. Birinchidan, bunday munosabatlar ular ishtirokchilari xohish-irodasiga muvofiq vujudga keladi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi faqat taraflarning ikki tomonlama erkin harakatlariga ko‘ra yuridik kuchga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, xususiy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarning yuridik tengligiga asoslangan. Uchinchidan, bunday munosabatlar gorizontaal xarakterga ega, ya’ni ular bevosita davlat hokimiyati organlari va ularning bo‘ysunuviga bog‘liq emas.



Fuqarolik huquqi qit'a huquq tizimida alohida va mustaqil huquq sohasi bo'lib, a'anaviy tarzda ishtirokchilarning tengligiga asoslanadigan hamda mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabat deb ataladigan shartli guruhlarga jamlangan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi.

Fuqarolik huquqining huquq sohasi sifatida funksiyasida ham asosiy va bosh o'rinni huquqiy tartibga solish egallaydi. Shu bilan birga fuqarolik huquqining funksiyasi sifatida mutaxassislar bir qator jihatlarni sanab o'tadilar. Masalan, Belaruslik mutaxassislar fuqarolik huquqining quyidagi funksiyalarini sanab o'tishadi:

- tartibga solish – fuqarolik huquqining normal amal qilayotgan munosabatlar taraflariga huquq va majburiyatlar yuklash yo'li bilan ta'sirini ta'minlaydi;

- muhofaza qiluvchi – fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining qonuniy huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplashini, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan shaxsiy nomulkiy huquqlarini tiklashni ta'minlaydi;

- axloqiy-tarbiyaviy funksiya ishtirokchilarining qonunchilikka rioya etishlari va fuqarolik-huquqiy munosabatlar buzmasliklariga, jamiyatning ma'naviy prinsiplarini hurmat qilishlariga undaydi.

Ayrim mutaxassislar fuqarolik huquqi bu faqat davlatning erkini ifodalaydigan qonun hujjatlari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat emas. Bunda shaxslarning muayyan ijtimoiy munosabatlarni o'zlari tartibga solish hamda shartnomalar erkinligini nazarda tutish zarur. Fuqarolik huquqi subyektlarining o'zlari ishtirok etayotgan ijtimoiy munosabatlarni o'zlari tartibga solishlari xususiy huquqning majburiy jihati bo'lib, ayni paytda u tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini, xususiy huquqning metodlari va tamoyillarini to'liq ifodalash imkonini beradi.

Fikrimizcha, fuqarolik huquqining funksiyasi nafaqat tartibga solish va muhofaza qilish, balki huquqiy holat va muayyan xulq-atvor qoidalarini hamda huquqiy tartibotni belgilashni ham qamrab oladi. Bu o'rinda "huquqiy qoidalarni

belgilash” funksiyasi xususida shuni aytish lozimki, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqining mazkur funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni faqat davlat tomonidan qabul qilingan qonun normalari orqali tartibga solish doktrinasi ustuvor bo‘lgan sobiq ittifoq davridagi tubdan farq qilishiga hamda ishtirokchilariga keng erkinlik va imtiyoz berilishi hamda fuqarolik huquqining dispozitiv yo‘naltirilganligiga asoslanadi. Fuqarolik huquqining “huquqiy qoidalarni belgilash” funksiyasi subyektlar uchun o‘xshatish mumkin bo‘lsa “mo‘ljal” vazifasini o‘taydi va ular muayyan vaziyatda o‘zlarini qanday tutish lozimligini, ijtimoiy munosabatlarda harakatlanishlari uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini bilib olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masalan, FKning 18-moddasi birinchi qismida fuqarolar ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqlar doirasi sanab ko‘rsatilib, uning ikkinchi qismida fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkinligi belgilangan. Mazkur norma fuqarolik huquqining tartibga solish yoki muhofaza qilish funksiyalariga mos kelmaydi. Chunki, uning mazmunida aniq qoida nazarda tutilmagan va gap qanday huquqlar haqida ketayotganligi ham mavhum. Shu sababli FKning 18-moddasi ikkinchi qismini faqat “huquqiy qoidaini belgilash” funksiyasiga mos deb hisoblash mumkin. Binobarin, kelajakda fuqaroning yana qanday huquqlariga ega bo‘lish oldindan noma’lum, lekin uning muayyan huquqlarga ega bo‘lishi cheklanmaydi.

Ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish vositasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, ish muomalasi odatlari, mahalliy urf-odatlar, shartnomalar e’tirof etiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasi birinchi qismida fuqarolik qonun hujjatlari nimani belgilashi va nimani tartibga solishi nazarda tutilgan. Uning mazmunidan anglashilishicha, fuqarolik qonun hujjatlari:

- 1) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

2) shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

## **2. Xususiy huquq tizimida biznes huquqining o‘rni**

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni davlatning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinishini Tadbirkorlik huquqi fani o‘rganadi. Misol uchun, fuqaro bir o‘zi ta‘sischiligida mas‘uliyati cheklangan jamiyat tashkil qilib, bolalar ichki kiyimlari ishlab chiqarish maqsadida bankdan kredit olib, chet eldan tikish uskunalarni xorijiy valyutada xarid qildi va o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Demak, tadbirkorlik huquqi o‘ziga xos muayyan munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi huquq sohasimi? Unda, tadbirkorlik huquqining huquq tizimida tutgan o‘rniga to‘xtalib o‘taylik. Tadbirkorlik huquqi ham boshqa huquq sohalari kabi birinchidan, huquqning mustaqil sohasi; ikkinchidan, qonunchilik tarmog‘i; uchinchidan, fan sohasi; to‘rtinchidan, o‘quv predmeti hisoblanadi. Tadbirkorlik huquqi – huquq tarmog‘i sifatida tadbirkorlik subektlarining iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari yig‘indisidan iborat. Misol tariqasida, “Iqtisodiy faoliyat” termini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, shuningdek “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasida qo‘llanilgan.

Biznes (tadbirkorlik) huquqining predmetini tadbirkorlik subektlarining tashkiliy-huquqiy, ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish, subektning ichki tuzilmalari o‘rtasidagi, davlatning tadbirkorlik subektlari faoliyatiga umumiy rahbarligi bilan bog‘liq munosabatlar tashkil etadi. Tadbirkorlik huquqining boshqa huquq sohalaridan, jumladan fuqarolik, ma‘muriy, moliya, mehnat va boshqa huquq sohalari bilan farqlanadi. Avvalo, fuqarolik huquqi fani mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga

qaratilgan, tadbirkorlik (biznes) huquqi esa tadbirkorlik subektlari o'rtasidagi vertikal va gorizontal, bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Tadbirkorlik huquqi subektlar o'rtasidagi tadbirkorlik munosabatlarini tartibga solsa, mehnat huquqi esa ish beruvchi bilan xodimlarning mehnat shartnomasi asosida munosabatlarini, ichki tartib qoidalarini, ish rejimini va shunga o'xshash mehnat shartnomasi bilan bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy huquqning predmeti ma'muriyatning buyruq hamda ijro faoliyati bilan, ya'ni hokimiyat va itoat etish, bir-biriga bo'ysunish sohasidagi faoliyat bilan bog'liq munosabatdir. Bunday munosabat itoat etuvchi quyi organlarga va mansabdor shaxslarga o'z direktivalari orqali ta'sir etish, boshqarish, idora etish kabi hokimiyatni amalga oshirish bilan izohlanadi. Tadbirkorlik munosabatlarida esa ma'muriy bo'ysunish faoliyatlari kam uchraydi. Misol uchun, tadbirkorlik subektlari faoliyatida davlatning umumiy rahbarligi, ya'ni davlat nazorati, soliqlar bilan ta'sir etish, tadbirkorlik subektlarining o'zaro ichki tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlar.

Moliya huquqining predmetini moliya budjeti kirim-chiqimi (davlat daromadini sarflash va tashkil etish davlat rejasi) bilan bog'liq munosabatlar tashkil etsa, korxonalar va tadbirkorlarning daromad manbayini tartibga solish va ulardan qayta ishlab chiqarish muomalasida foydalanish kabilar biznes (tadbirkorlik) huquqining predmetini tashkil etadi.

Biznes (tadbirkorlik) huquqining asosiy prinsiplari. Barcha huquq sohalari kabi tadbirkorlik huquqining ham asosiy va eng muhim prinsiplari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan asosiy qoidalardir. Ushbu tadbirkorlik huquqiga oid asosiy prinsiplar respublikamizda bozor munosabatlarining rivojlanishida barcha tadbirkorlik subektlarining iqtisodiy faoliyatini ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Xususiy huquq tushunchasi va u bilan tartibga solinadigan munosabatlarni tavsiflang.

2. Fuqarolik huquqining umumiy tavsifini keltiring.
3. Fuqarolik huquqi qanday munosabatlarni tartibga soladi?
4. Xususiy huquq tizimida biznes huquqining o'rniga izoh bering?

## **2. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

### **Reja:**

1. O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari tahlili.

2. Yangi Fuqarolik kodeksida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalarini ko'paytirish va kam tuziladigan tashkiliy-huquqiy shakllarni optimallashtirish masalalari.

**Tayanch iboralar:** *yuridik shaxs tushunchasi, tashkiliy-huquqiy shakl tushunchasi, xo'jalik jamiyatlari, xo'jalik shirkatlari, oilaviy korxonona, xususiy korxonona.*

*Dars mashg'ulotlarini quyidagi ma'lumotlar asosida o'tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. *Tijoratchi yuridik shaxslar turlari farqini aks ettiruvchi savollar tuzish;*

2. *MDH mamlakatlari Fuqarolik kodekslarini bo'yicha tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari haqida taqdimot tayyorlash.*

3. *Yangi Fuqarolik kodeksidagi yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari haqida qiyosiy jadval tayyorlash.*

### **1. O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari tahlili**

Amaldagi Fuqarolik kodeksida yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi ta'rif berilmagan. Biroq bir qator tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalari keltirib o'tilgan.

FKning 39-moddasiga ko'ra, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxon va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Ulushlarga (qo'shilgan hissalar) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

FKning 60-moddasiga asosan, ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

FKning 61-moddasiga asosan, shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkleri bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkatda qatnashayotgan to'liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi ushbu Kodeksning qoidalari bilan belgilanadi.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to'liq sherik bo'lishi mumkin.

To'liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to'liq sherik bo'la olmaydi.

Kommandit shirkatdagi to'liq sherik o'sha shirkatning o'zida hissa qo'shuvchi va boshqa to'liq shirkatda ishtirokchi bo'lishi mumkin emas.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalariga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

FKning 64-moddasiga asosan, ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

FKning 67-moddasiga ko'ra, agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

FKning 68-moddasiga muvofiq, xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning (ulushning) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarning (ishtirokchilarning) mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi



ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo'yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Fuqarolik kodeksining 70-moddasiga muvofiq, o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxonaga hisoblanadi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxonaga xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning ustavida Fuqarolik Kodeksining 43-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari korxonaga ustav fondining miqdori to'g'risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir.

Fuqarolik kodeksida nazarda tutilmagan bo'lsa-da, xususiy korxonaga va oilaviy korxonaga kabi tashkiliy-huquqiy shakllar qonunlarda nazarda tutilgan.

## **2. Yangi Fuqarolik kodeksida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalarini ko'paytirish va kam tuziladigan tashkiliy-huquqiy shakllarni optimallashtirish masalalari**

Yangi Fuqarolik kodeksi loyihasida konseptual jihatdan yana bir noto'g'ri yondashuv yuridik shaxslar ro'yxatining yopiq qilib qo'yilganidir. Bunda eng bahsli masala ro'yxatning tijorat yuridik shaxslari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari doirasida cheklab qo'yilganidir. Sivilist olimlarning ko'pchiligi bundan taajjubga tushmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida katta yukni ko'tarib turgan xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklarini tugatish va ularni MCHJga aylantirish (chunki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari bir-birlari uchun ham solidar, subsidiar javobgar bo'lishi ko'pchilikni bunday yuridik shaxsni tashkil etishdan cho'chitadi) tushunarsiz hol. Iqtisodiy tizimda tijoriy yuridik shaxslarni qayta tashkil etishlar iziga tushguncha uch-to'rt yil o'tadi. Bu esa ularning faoliyatini samarali amalga oshirishga, ularni boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O‘zbek xususiy huquqida yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari, ayniqsa tijoratchi yuridik shaxslar shakllari bozor munosabatlari rivojlanishi bilan takomillashib borishi lozim.

Ayni vaqtda fuqarolik qonunchiligi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kapital va shaxslarni birlashtiruvchi asosiy ushbu shakllarni taklif etadi:

### **I. Korporativ tashkiliy-huquqiy shakllar**

1. **Xo‘jalik jamiyatlari** – aksiyadorlik va mas’uliyati cheklangan jamiyatlari. Ular shaxslarning kapitalini birlashtirib, qulay boshqaruv mexanizmiga ega. Ishtirokchilar javobgarligi cheklangan.

Mazkur yuridik shaxslar (korporatsiya), ayniqsa MCHJ shakli tadbirkorlik faoliyatida eng keng tarqalgan.

2. **Xo‘jalik shirkatlari** (to‘liq va kommandit shirkat) – ishtirokchilarning o‘zi va ular kapitalini birlashtiruvchi korporatsiyalar. Bunda ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) shirkat majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik oladilar. Tijoratchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘liq ishtirokchisi bo‘la oladi.

Kommandit sherik, ya‘ni shirkat majburiyatlari bo‘yicha faqatgina o‘zi kiritgan hissalarini doirasida javobgar bo‘ladigan ishtirokchi mavjud bo‘lsa bunday shirkat kommandit shirkat deb ataladi.

3. **Ishlab chiqarish va iste‘mol kooperativlari, oilaviy korxonalar.**

### **II. Unitar tashkiliy-huquqiy shakllar.**

**Xususiy korxonalar, fermer xo‘jaligi, unitar korxonalar** – bular faqatgina yagona shaxs (yagona jismoniy shaxs – mulkdor ta‘sis etsa xususiy korxonalar, yuridik shaxs tashkil etsa – unitar korxonalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida yagona jismoniy shaxs tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilsa – fermer xo‘jaligi). Ushbu yuridik shaxs shakllari unitar tashkiliy-huquqiy shakllardir. Ya‘ni ular bir necha shaxslar kapitalini birlashtirish imkonini bermaydi. Ayrimlari (FX, XK) o‘z mohiyatiga ko‘ra rivojlangan huquq-tartibotlardagi yakka tartibdagi tadbirkor shaklini takrorlaydi, biroq yuridik shaxsiyat ularga tatbiq etiladi.

### **III. Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishda ko‘rib chiqilishi tavsiya etilayotgan tashkiliy-huquqiy shakllar: rivojlangan huquq-tartibotlar korporatsiyalari shakllari.**

1. Xo‘jalik shirkatlarini isloh qilish, ular ishtirokchilarini 2 marta soliq to‘lashini bartaraf etish. Bu esa shirkatlarni yuridik shaxs layoqatidan mahrum qilishni nazarda tutadi. Germaniya, Italiya, Niderlandiyada, shuningdek ingliz

huquq-tartibotlarida shirkatlar (ingliz huquqidagi partnership) yuridik shaxs hisoblanmaydi, lekin tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida ishtirok etadi (bu ushbu mamlakatlarda tarixan savdo huquqi shakllangani bilan bog‘liq). Bu esa ularning yuridik shaxs sifatida korporativ soliq to‘lovchisi bo‘lishdan saqlaydi.

Natijada ushbu eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyati shakli birgalikdagi investitsiya va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay bo‘ladi va rivojlanadi. Hozirda xo‘jalik shirkatlari soni 186 tani tashkil etmoqda.

**2. Aksiyadorlik kommanditasi shaklini kiritish.** Bu Germaniya, Fransiya kabi huquq-tartibotlarda keng tarqalgan shakl bo‘lib, kommandit shirkat va aksiyadorlik jamiyati qorishmasi hisoblanadi. Bu asosiy aksiyadorning (to‘liq sherik) cheklanmagan javobgarligi ostida (bu tabiiyki fuqarolik muomalasi ishtirokchilari uchun foydali, kreditorlar manfaatlariga xizmat qiladi cheklanmagan javobgarlik) kommandit sheriklarning investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan shirkat aksiyalar shaklida kommandit investorlar jalb qila oladi.

**3. Javobgarligi cheklangan kompaniya – Limited liability company LLC.**

Ushbu shakl ingliz huquqi, ayniqsa AQSH huquqida juda keng qo‘llanadi. Ushbu kompaniya shirkat partnership va korporatsiya (bizdagi xo‘jalik jamiyati) qorishmasi bo‘lib, ingliz huquqida yuridik shaxs hisoblanmaydi (ya‘ni, ushbu huquq bo‘yicha korporatsiya hisoblanmaydi). Natijada kompaniya korporativ soliq to‘lamaydi (mustaqil yuridik shaxs sifatida mutlaqo soliqqa tortilmaydi), faqatgina uning ishtirokchilari o‘z foydalarini olishda tegishli foyda yoki daromad solig‘iga tortiladi (pass-through tax).

Lekin bunda Rossiya Federatsiyasida yo‘l qo‘yilgan xatoni takrorlamalik lozim. RF ayn ushbu tashkiliy-huquqiy shaklni retsepsiya qilishda ayrim o‘ziga xos o‘zgarishlar qilib, xo‘jalik sherikchilik – xozyaystvennoye partnerstvo konstruksiyasini joriy qildi. Biroq bu yuqoridagi LLC kabi xususiyatlarga ega bo‘lmadi va amaliyotda muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

**4. Soddalashtirilgan aksiyadorlik jamiyati - Société par actions simplifiée , SAS (fr), o‘zgaruvchan kapitalli investitsiya jamiyati (Investmentgesellschaft mit variablem Kapital, nazivayemoye takje Société d’Investissement à Capital Variable, SIKAV) (AJ shaklida tashkil etilib, ayrim opsiyalar beriladi).**

Mazkur shakl Fransiya huquqida keng tarqalgan (bu shakl 2001 yildagi qonun bilan kiritilgan).

**5. Shuningdek, notijorat yuridik shaxs shakllarini qayta ko‘rib chiqish lozim. Ayniqsa muassasa (Anstalt) shaklini avtonomligi va o‘ziga berilgan mulkka bo‘lgan huquqlarini kengaytirish. Zero bugungi muassasalar tarixan**

shakllangan muassasalardan (Anstalt) farqli o'laroq o'ziga berilgan mol-mulk mulkdori bo'lolmaydi.

Rivojlangan huquq-tartibotlarda (masalan, Germaniya) notijorat uniart yuridik shaxslar muassasalar:

**Anstalt** – muassasa – yagona mulkdor tomondan ta'sis etilib, uning o'zi yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan boshqariladi, muassasa o'ziga berilgan mulkning mulkdori bo'ladi, yoki

**Stiftung** – fonda – mulkdor tomonidan ta'sis etilib, uning boshqaruvida ishtirok etmaydi, fonda boshqaruv organiga yuklatiladi. Ta'sichi boshqaruvdan butunlay mahrum bo'ladi. Fond mol-mulkiga nisbatan fonda mulk huquqi mavjud bo'ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari tushunchasiga ta'rif bering?
2. Tijoratchi tashkilotlar turlarini sanang.
3. Yangi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar konstruksiyalari haqida fikr yuriting.
4. Qaysi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslarni FKda ortiqcha deb o'ylaysiz?

### **3. Bitimlarning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini huquqiy tartibga solish**

#### **Reja:**

1. Bitimlar haqiqiy emasligi to'g'risidagi umumiy qoidalar.
2. Nizoli bitim va uning turlari.
3. Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko'rib chiqish istiqbollari

**Tayanch iboralar:** *bitimlar haqiqiy emasligi, o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar, nizoli bitimlar.*

*Dars mashg'ulotlarini quyidagi ma'lumotlar asosida o'tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. *Fuqarolik sudlari amaliyotidan o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar bilan bog'liq hal qiluv qarorlarini tahliliy o'rganish;*
2. *Iqtisodiy sudlar faoliyatida nizoli bitimlar haqidagi FK normalari qo'llanilishini uslubiy jihatdan o'rganish;*
3. *Taqdimot tayyorlashda tayanish lozim bo'lgan materiallar.*

#### **1. Bitimlar haqiqiy emasligi to'g'risidagi umumiy qoidalar**

Amaldagi Fuqarolik kodeksining 113-moddasiga ko'ra, bitim ushbu Kodeksda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim).

Nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan shaxslar qo'yishlari mumkin.

O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo'llanish to'g'risidagi talabni har qanday manfaatdor shaxs qo'yishi mumkin. Sud bunday oqibatlarni o'z tashabbusi bilan qo'llashga haqli.

Haqiqiy bo'lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir.

Bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat

bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart.

Basharti qonun yoki majburiyatlarning ayrim turlarini tartibga soluvchi FK normalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar bo'yicha umumiy da'vo muddati – uch yil.

Bunda FKning 160-moddasi talabiga muvofiq da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi haqidagi FKning 156, 157, 159-moddalari qoidalari, agarda qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, majburiyatlarning ayrim turlariga ham taalluqlidir.

Bitimlarga oid nizolarni ko'rishda shartnomani haqiqiy emas deb topish va shartnomani bekor qilish tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. O'zbekiston Respublikasi FKning 9-bobi 113-126-moddalarida ko'zda tutilgan bitimlarning haqiqiy emasligini tartibga soluvchi normalarda bayon etilgan asoslar bo'yicha shartnomalarni haqiqiy emas deb topilishiga yo'l qo'yiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi FKning 114-moddasi 1-qismiga muvofiq haqiqiy bo'lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarni vujudga keltirmaydi va u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shartnomani bekor qilish esa to'liq yoki qisman bajarilmagan shartnomani va uning oqibatida vujudga kelgan taraflarning huquq va majburiyatlarini kelgusida bekor qilishga qaratilgan harakatdir.

Shartnomaning haqiqiy emasligi va shartnomani bekor qilishning o'zaro farqi:

a) bitimning haqiqiy emasligiga asos uning noqonuniyligidir. Bekor qilishga esa — uning qonuniyligi nizolashilmasdan shartnomani bekor qilishga sabab bo'ladigan holatlarning yuzaga kelishi asos bo'ladi;

b) shartnomani bekor qilish u amalda bo'lgan vaqtdagi o'zaro huquq va majburiyatlarga ta'sir etmasdan, faqatgina kelgusidagi huquq va majburiyatlarga taalluqlidir.

Bitimlarni haqiqiy emas deb topish haqidagi talabdan farqli ravishda shartnomani bekor qilish haqidagi talabda da'vo muddati cheklanmagan bo'ladi va bunday da'vo bilan murojaat qilishga shartnoma harakatda bo'lgan butun davr mobaynida yo'l qo'yiladi.

Bir tomonlama bitimlarning haqiqiy emasligi FKning 9-bobida belgilangan umumiy qoidalar bilan, uni bekor qilish shartlari esa aynan shu turkumdagi bitimlarga oid qoidalar bilan tartibga solinadi (masalan, ishonchnoma va vasiyatnomani bekor qilish FK 141, 142, 1127-moddalari).

FKning 9- bobida qayd etilgan qoidalar bitimlarni haqiqiy emas deb topishning qat'iy asoslari hisoblanadi.

Ayrim toifadagi bitimlarni tuzish tartibi va shartlari majburiyatlarning ayrim turlari to'g'risidagi FK qoidalari va maxsus qonunlar bilan tartibga solinishini hisobga olib, sudlar shuni nazarda tutishlari kerakki, bitim shakli va tuzilishi tartibi qoidalariga rioya qilmaslik, to'g'ridan-to'g'ri qonun qoidalarida va qonunchilik aktlarida ko'rsatilgan holatlardagina FKning 115-116-moddalari asosida bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 114-moddasi 2-qismiga muvofiq, bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart. Bunda «bitim bo'yicha olingan narsa»ni aniqlashda haqiqiy emas deb topilgan shartnoma shartlaridan kelib chiqib, shuni nazarda tutishlari lozimki, bitim haqiqiyliги nizolashilganda taraflarning bitim shartlari doirasidan tashqaridagi munosabatlari huquqiy ahamiyatga ega emas.

## **2. Nizoli bitim va uning turlari**

Agar bitim Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topilsa, bunday bitim nizoli bitim hisoblanadi. O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim; yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim; aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim; yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimga nizoli bitim turlar hisoblanadi.

FKning 122-123-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi nizolarni ko'rishda sudlar yanglishish ta'sirida, aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim tushunchalarini bir-biridan farqlashlari lozim.

Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim deb, bitim yuzasidan kelib chiquvchi taraflarning huquq va majburiyatlari to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish, ya'ni taraflarning haqiqiy xohish-irodasini aks ettirmasdan, bitim tuzilgan vaqtda taraflar tomonidan nazarda tutilmagan huquqiy oqibatlarga olib kelgan bitim tushuniladi. Yanglishish har xil holatlarda ko'rinishi mumkin, masalan, muzokara vaqtida taraflar bir-birlarini tushunmaganliklari, qonunlarni noto'g'ri talqin

qilganliklari, bitimning haqiqiy oqibatlarini noto'g'ri tasavvur etganliklari va boshqalar. Shu bilan birga qonunni bilmaslik bitimning ushbu asos bilan haqiqiy emasligini keltirib chiqarmaydi.

Aldash bu bir tarafning bitim tuzilishida nazarda tutilgan holatlarning yuzaga kelmasligini bila turib, atayin ikkinchi tarafni bitim tuzishga undashga qaratilgan aybli harakatidir. Aldash bitimning elementlariga, uning doirasidan tashqaridagi holatlarga, shuningdek, bitimni amalga oshirish yuzasidan bitim ishtirokchisi xohish-irodasini shakllantirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan sabab va motivlarga qaratilgan bo'ladi.

Zo'rlik deb, bitim ishtirokchisiga (uning yaqin kishilariga) jismoniy yoki ruhiy azob berish natijasida bitim tuzishga majbur qilish tushuniladi. Zo'rlik noqonuniy xatti-harakat bo'lib, jinoiy javobgarlikka tortish shart bo'lmagan harakatlarda ham ko'rinishi mumkin. Masalan, xizmat vakolatidan foydalangan holda shartnoma yuzasidan majburiyat oluvchining erkiga ta'sir qilish.

Qo'rqitish deb, bitim ishtirokchisining erkiga ruhiy ta'sir ko'rsatish natijasida uning uchun noqulay bo'lgan bitim tuzishga majburlash tushuniladi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, qayd etilgan asos bo'yicha bitimni haqiqiy emas deb topishning zarur shartlaridan biri qo'rqitishning realligi hisoblanadi.

Bir taraf vakilining ikkinchi taraf vakili bilan yomon niyatda kelishuvi deb, vakilning boshqa taraf bilan vakolat beruvchi manfaatlariga zid shartlar asosida kelishuvi tushuniladi.

Og'ir holatlarning yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim deganda, bir tarafning o'zi uchun o'ta noqulay shartlar asosida bitim tuzayotganligini anglashi (bu yerda yanglishish ham, aldash ham bo'lmaydi), lekin uni tuzishga majbur bo'lishi tushuniladi.

Bunda quyidagi ikki shartning mavjud bo'lishi bitimni og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilganligi uchun haqiqiy emas deb topishga asos bo'ladi:

a) og'ir holatlar yuz berishi tufayli bir tarafning o'zi uchun o'ta noqulay shartlar bilan bitim tuzishga majbur bo'lishi;

b) ikkinchi tarafning bunday holatdan foydalanib, bitim tuzishga qaratilgan harakatining mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan asoslar bo'yicha bitimlarning haqiqiy emasligini isbotlash majburiyati da'vogarga yuklatiladi.

O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi bo'yicha nizolashilganda, sudlar isbotlash vositalariga yo'l qo'yilishi haqidagi FPK 74-moddasi qoidalaridan kelib chiqib, ish bo'yicha tegishli (psixologik) ekspertiza tayinlash masalasini muhokama qilishlari lozim.



### **3. Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish istiqbollari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi F-5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida bitimlar institutini takomillashtirish, jumladan bitimlarni majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va notarial tasdiqlashni, bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish vazifasi qo‘yilgan. Mazkur hujjat asosida ishlab chiqilayotgan yangi Fuqarolik kodeksi loyihasida huquq-tartibot yoki axloq asoslariga qarshi maqsadlarda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi haqida, yangilishish ta‘sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi haqida, haqiqiy bo‘lmagan bitimlar bo‘yicha da‘vo muddati haqida yangi moddalar, yangilishish ta‘sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq yangi qoidalar aks ettirilmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni qanday farqlaysiz?
2. Shartnomani va bitimni haqiqiy emas deb topishning qanday farqlari bor?
3. Yangi Fuqarolik kodeksida bitimlarning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq qanday yangi normalar aks ettirilmoqda?
4. Sudlar amaliyotidan nizoli bitimga misol keltiring?

#### **4. O‘zbekiston Respublikasining tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar**

##### **Reja:**

1. Tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslar umumiy tavsifi.
2. Xalqaro reytinglar va indekslar mezonlarini tahlil qilish.
3. So‘nggi yillarda Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)da O‘zbekistonning o‘rnini qiyosiy-tanqidiy o‘rganish.

**Tayanch iboralar:** xalqaro reytinglar va indekslar, xalqaro reytinglar va indekslar mezonlari, Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index).

Tayanch iboralar: xalqaro reytinglar va indekslar, xalqaro reytinglar va indekslar mezonlari, Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index).

*Dars mashg‘ulotlarini quyidagi ma’lumotlar asosida o‘tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. Dars mashg‘uloti uchun manbalar izlashda tayanish lozim bo‘lgan ma’lumotlar;
2. Ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rishda tayanish lozim bo‘lgan materiallar;
3. Taqdimot tayyorlashda tayanish lozim bo‘lgan materiallar.

##### **1. Tadbirkorlik va biznesga oid xalqaro reytinglar va indekslar umumiy tavsifi**

So‘nggi 3 yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-xuquqiy sohalarga oid xalqaro reyting va indekslardagi mavqeini oshirish bo‘yicha Davlatimiz rahbarining 13 ta farmon va qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha 7 ta chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, mutasaddi vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan birgalikda xalqaro reytinglarni hisoblash

metodologiyalarining tahlili, ularda O‘zbekistonga berilayotgan baholarga sabab bo‘layotgan omillar o‘rganib borilmoqda.

Xalqaro reyting va indeksni yurituvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlarning aksariyati bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi.

So‘nggi 4 yil mobaynida mamlakat «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52, «Logistika samaradorligi» indeksida – 19, «Doing Business» indeksida – 18 pog‘onaga, IHTTning «Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimida 6-guruhdan 5-guruhga ko‘tarildi.

O‘zbekiston xalqaro maydonda o‘z nufuzini yuksaltirish yo‘lidan bormoqda. Mamlakatimiz izchillik bilan islohotlarni amalga oshirar ekan, milliy reytingimizni belgilayotgan agentliklar ularni munosib baholamoqda.

Avvalo, reyting nima uchun kerak, degan tabiiy savol tug‘iladi. Reyting turlicha bo‘lishi mumkin, biznes reytingi, investitsiyaviy jozibadorlik reytingi va boshqalar. Har qanday davlat reytinglarda ishtirok etsa va u yuqori o‘rinda bo‘lsa, bu ushbu davlatning ochiqligi, shaffofligi hamda iqtisodiy salohiyatini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash uchun keng ko‘lamli islohotlar olib borayotgan va rivojlanish pallasida bo‘lgan davlatlar, albatta, reytinglarda munosib o‘rinlarni egallashga intilishi tabiiy. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda hamkorlik o‘rnatish istagida bo‘lgan davlatlar va tashkilotlar umume’tirof etilgan reytinglarga, albatta, e’tibor qaratadi.

2020-yil 2-iyun kuni Prezident tomonidan O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash, davlat organlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risidagi Farmon imzolandi.

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etiladi. Uning asosiy vazifasi ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston o‘rnini quyidagilar orqali yaxshilashdan iborat:

mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni hisobga olish, shuningdek mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish;

davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan NHH va ularning loyihalarini mamlakatimizning o'rniga ta'siri nuqtai nazaridan kompleks baholab borish.

Kengashning ishchi organlari – Moliya va Adliya vazirliklari. Ishchi organlar bo'yicha taqsimlangan ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning o'rnini yaxshilashga qaratilgan ta'sirchan choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hamda ushbu yo'nalishda tizimli xalqaro hamkorlik olib borilishi ustidan Kengash tomonidan nazorat o'rnatiladi.

Ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha mamlakatimizning o'rnini yaxshilash – mas'ul davlat organlari birinchi rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholashning bosh mezonlaridan biri. U bo'yicha eng muhim ko'rsatkichlar (KPI) belgilandi. Ularga erishish maqsadida mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan quyidagilar ishlab chiqilishi va kengashga tasdiqlash uchun taqdim etilishi lozim:

2020-yilning ikkinchi yarmi davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar dasturlari (bir oy muddatda);

kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar dasturlari (har yil 1 dekabrga qadar).

Ularda xalqaro reyting va indekslarning navbatdagi nashrida zarur ko'rsatkichni qayd etishga qaratilgan amaliy takliflar, shuningdek reyting va indekslarni e'lon qiluvchi tashkilotlar hamda ularni tuzishda foydalaniladigan axborot manbalari bilan hamkorlik qilish mexanizmlari nazarda tutilishi lozim.

Mas'ul davlat organlarining birinchi rahbarlari har bir chorak yakuni bo'yicha:

kengash ishchi organlariga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, zarur statistik axborotlar va boshqa materiallarni taqdim etadi (keyingi oyning 15-sanasiga qadar);

kengash raisi yoki o‘rinbosarining rahbarligida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda tegishli xalqaro reyting va indekslarda KPI ga erishish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida axborot beradi (keyingi oyning 30-sanasiga qadar).

2019-yil martda tashkil etilgan komissiya kengashga ko‘maklashadi va tegishli yo‘nalishda mas‘ul davlat organlari ishini muvofiqlashtirib boradi. Mas‘ul davlat organlari hamda tadqiqot institutlari tegishli reyting va indekslar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlarni kengash ishchi organlariga muntazam ravishda taqdim etib boradi.

Adliya vazirligida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi tashkil etiladi. Boshqarma bir oy muddatda yuqori malakali kadrlar bilan to‘ldiriladi.

«O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» portalining ishga tushirilishi 2020-yil 1-oktyabrga ko‘chirildi (dastlabki sana – 2019-yil 1-aprel edi). Moliya vazirligiga buni manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amalga oshirish topshirildi. Moliya vazirligi hamda Adliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda portal uzluksiz ishlashini ta‘minlash va uni yangilab borish uchun mas‘ul etib belgilangan.

## **2. Xalqaro reytinglar va indekslar mezonlarini tahlil qilish**

«Iqtisodiy erkinlik indeksi» «Heritage Foundation» Amerika markazi tomonidan «Wall Street Journal» bilan hamkorlikda 1995-yildan buyon har yili 186 mamlakatning reytingi tuzib kelinadi. «Iqtisodiy erkinlik indeksi» 4 ta guruhga birlashtirilgan 12 ta komponentni o‘z ichiga olib, 0 dan 100 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha o‘lchanadi. Indeksning qiymati qancha katta bo‘lsa, tuzuvchilar fikriga ko‘ra, davlat shunchalik iqtisodiy jihatdan erkin bo‘ladi.<sup>1</sup>

Jahon bankining Biznes yuritish (Doing business) reytingi mamlakatda biznes yuritish qulayligini baholovchi quyidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi: 1) korxonalar (biznes) tashkil etish, 2) qurilish uchun ruxsat olish, 3) elektr ta‘minoti tizimiga ulanish, 4) mulkni ro‘yxatga olish, 5) kredit olish, 6) minoritar

---

<sup>1</sup> <https://www.heritage.org/index/country/uzbekistan>

investorlarni himoya qilish; 7) soliq solish, 8) xalqaro savdo, 9) shartnomalarning bajarilishi va 10) to'lovga qodir bo'lmashlik. Prezidentimizning 2018-yil 13-iyuldagi "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida 2022 yilga qadar mamlakatda tadbirkorlik uchun reytingning yuqori yigirmatalik darajasiga mos sharoitlar yaratish vazifasi qo'yilgan.

Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index) global tadqiqotlar va iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlarning reytingi hisoblanadi. Mazkur reyting Jahon iqtisodiy forumi metodologiyasiga binoan ommaga taqdim etiladigan statistika va kompaniya rahbarlarining global so'rovi natijalariga asoslangan.

2021 yildan O'zbekiston ham Global raqobatbardoshlik indeksida o'z o'rniga ega bo'lishi kutilyapti. Jahon iqtisodiy forumining (JIF) Global raqobatbardoshlik indeksi (GRI) mamlakatning iqtisodiy o'sish istiqbollari hamda o'z fuqarolarining yuqori darajadagi farovonligini ta'minlash imkoniyatini baholaydi. Ushbu indeks, o'z navbatida, davlatning mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatadi. Lekin, O'zbekiston Respublikasi GRIga kiritilmagan.

Hozirgi vaqtda Moliya vazirligi Jahon iqtisodiy forumi vakillari bilan birgalikda respublikaning GRIga kiritilishi bo'yicha ish olib bormoqda.

JIF mutasaddilari bu uzoq jarayon ekanligini ma'lum qilishgan va buning sabablarini quyidagicha izohlashgan:

birinchi bosqichda, 2020-yilning 1 yanvariga qadar JIF O'zbekistonda faoliyat yuritadigan nodavlat ilmiy-tadqiqot institutlari, xususiy universitetlar yoki agentliklar orasidan bittasini o'zining hamkori sifatida tanlab oladi. JIF tomonidan tanlangan tashkilot kichik korxonalar, yirik korporatsiyalar, aksionerlik jamiyatlari, shuningdek, O'zbekistonda faoliyat olib boruvchi xorijiy kompaniyalar (filiallari) orasida maxsus so'rovnoma o'tkazadi;

JIFning O'zbekistondagi hamkor tashkiloti 2020-yilda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari to'g'risida hisobot berishi kerak;

Yuqoridagi jarayonlar yakunlanib, hisobotlar topshirilganidan so'ng, mamlakat 2021-yilda rasmiy ravishda GRIga kiritilishi mumkin. JIF xodimlari tomonidan berilgan izohga ko'ra, JIF birinchi navbatda olingan so'rovnoma

natijalarini O‘zbekiston ko‘rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishini tekshirib ko‘rishi zarur. Ikkinchidan, ushbu tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib borilishi va tahlil qilinishi lozim.

JIF tomonidan O‘zbekistonning GRIga kiritish jarayoni 2 yil muddat talab etishini inobatga olib, yuqorida ko‘rsatilgan hamkorlik shartlariga rioya qilgan holda O‘zbekiston Respublikasining GRIIdagi o‘rni 2021-yildan boshlab aks ettirib borilishi kutilmoqda.

### **3. So‘nggi yillarda iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), Biznes yuritish (Doing business), Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)da O‘zbekistonning o‘rnini qiyosiy-tanqidiy o‘rganish**

Jahon bankining «Biznes yuritish 2020» (Doing Business 2020) yillik reytingida O‘zbekiston 2019 yil yakunlari bo‘yicha 100 baldan 69,9 ball to‘plab, 190 mamlakat orasida 69-o‘rinni egalladi. O‘tgan yilgi reytingga nisbatan mamlakat 76-o‘rindan 7-o‘ringa ko‘tarildi.

Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi matbuot xizmatiga ko‘ra, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to‘rtta davlat, shu jumladan Tojikiston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Kosovo bilan birgalikda O‘zbekiston ishbiarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi.

Jahon banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda ishbiarmonlik muhitini yaxshilashdagi asosiy islohotlar quyidagilar:

- eng muhim korporativ qarorlarda aksiyadorlar huquqlari va rolini kengaytirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish, shuningdek korporativ shaffoflikni oshirish orqali minoritar investorlar himoyasini kuchaytirish;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini daromad solig‘i bilan birlashtirish orqali soliqqa tortishni soddalashtirish;

- xavfga asoslangan bojxona nazorati mexanizmini joriy etish orqali xalqaro savdoni soddalashtirish, shuningdek, import hujjatlariga talablarni yengillashtirish;
- ixtiyoriy mediatsiya to'g'risidagi qonunni qabul qilish orqali shartnomalar ijrosini soddalashtirish, shuningdek, taraflarni nizolarni mediatsiya orqali hal qilishga undash uchun moliyaviy rag'batlar yaratish.

«Biznes yuritish» hisobotida 190 mamlakatdagi vaziyatni tahlil qilish asosida 10 ta sohadagi qonunchilikdagi o'zgarishlar qayd etilgan. U 2019 yil 1 mayda tugagan 12 oylik davr uchun o'zgarishlarni baholaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Xalqaro reyting va indekslarda munosib o'ringa ega bo'lish mustaqil davlat uchun nima beradi?
2. O'zbekiston so'nggi yillarda xalqaro reyting va indekslardagi o'rinlarni yaxshilash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?
3. Hozircha mamlakamiz kirmagan reyting va indeksdarga kirish uchun qaysi sohalardagi islohotlarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaysiz?



## **5. Pandemiya va favqulotda sharoitlarda biznes, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish**

### **Reja:**

1. Favqulotda sharoitlarda biznesni huquqiy tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari.
2. Favqulotda vaziyatda biznes subyektlariga nisbatan davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar.
3. Favqulotda sharoitlarni biznes partnyorlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri, fors-major holatlar.

***Tayanch iboralar:** pandemiya, koronavirus, fors-major, favqulotda holat, favqulotda sharoit, fors-major.*

*Dars mashg'ulotlarini quyidagi ma'lumotlar asosida o'tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. *Pandemiya sharoitida O'zbekistonda aholi va biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni statistik ma'lumot ko'rinishida aks ettirish;*
2. *Fors-major hisoblanadigan holatlarga oid sud amaliyoti materiallaridan misollar keltirish va ularni tahlil qilish;*
3. *Taqdimot tayyorlashda tayanish lozim bo'lgan materiallar.*

### **1. Favqulotda sharoitlarda biznesni huquqiy tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari**

Butun insoniyatni normal xayotiga xavf solgan, muayyan ma'noda odatdagi turmush tarzini izdan chiqargan "Tojli virus 19" pandemiyasi jamiyatdagi huquq tartibot asoslariga, favqulotda sharoitlarda inson huquqlarini amal qilish xususiyatlariga, xususan tadbirkorlik va biznesni, investitsiyalarni tashkil etish masalalariga boshqacha yondashuvlar orqali izoxlash zaruriyatini taqozo etdi. Bunda huquq tartibotdagi favqulotda vaziyatlar sababli qo'llanilayotgan choralar inson huquqlari va erkinliklari, kishilarni tadbirkorlik, investitsiya kiritishi, biznes yuritish orqali yoxud mehnat shartnomasi orqali o'z tirikchilik manbalariga ega bo'lish imkoniyatlarini muayyan tarzda davlat tomonidan yoki ixtiyoriy tarzda cheklanishiga sabab bo'ldi. Xar bir insonni mulkdor bo'lish, mol-mulkka egalik qilish huquqi (Inson huquqlari Umumjaxon Dekloratsiyasining 17-moddasi 1-bandi), xar bir ishlayotgan odam uning o'zi

oilasi uchun munosib yashashini ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olish (Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasining 23-moddasi 3-bandi) huquqlariga ega. Ushbu huquqlarni ro'yobga chiqarish va namoyon bo'lish xususiyatlari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt"da o'z ifodasini topgan. Ushbu Paktning 6-7-moddalarida insonning mehnat qilish huquqi orqali o'z farovonligini ta'minlash xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Paktning 11-moddasiga ko'ra ushbu paktda ishtirok etuvchi davlatlar xar bir kishining o'zi va oilasi uchun yetarlicha turmush darajasi bo'lish huquqini e'tirof etadilar. Yetarlichi oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy hamda turmush sharoitlarini muttasil yaxshilanib borishi shu jumlagi kiradi. Albatta kishilar o'z tirikchilik vositalariga ega bo'lishi birinchi galda uning o'zining sa'yi xarakatlari orqali amalga oshiriladi. Bu tadbirkorlik faoliyati, o'zini-o'zi band qilish yoxud mehnat shartnomasi asosida faoliyat yuritish bo'lishi mumkin. Biroq pandemiya sharoitida dunyodagi deyarli barcha davlatlar kishilarni erkin xarakatlanishiga ta'qiq qo'yib, o'z chegaralarini yopdilar. Mamlakat ichidagi xarakatlar ham jiddiy cheklashlarga duchor bo'ldi. Karantin va o'zini o'zi yakkalash (izolyatsiya qilish) chora-tadbirlari tizimi joriy etildi. Bunday holatlar mohiyati, zaruriyati yurist mutaxassislar, olimlar tomonidan ommaviy axborot vositalarida boshqa ilmiy manbalarda taxlil etilmoqda.<sup>2</sup>

Pandemiya munosabati bilan amalga oshirilgan chora-tadbirlar huquqiy maydonda amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi 29-moddasiga ko'ra xar bir inson jamiyat oldida muayyan majburiyatlarga ega va shu majburiyatlarni bajarish orqali inson shaxsi erkin va to'la to'kis kamol topishi mumkin. Xar bir inson o'z huquq erkinliklarini ro'yobga chiqishida muayyan cheklashlarga duchor bo'lishi mumkin bunday cheklashlar qonun tomonidan belgilab qo'yilgan bo'ladi hamda undan maqsad boshqalarning huquqlari, erkinliklari zarur darajada tan olinishi va hurmat

---

<sup>2</sup> M.Mirzaabdullayeva. Qonunchilik pndemiyaga tayyor edimi. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) 18.04.2020  
R.Davletov Koronavirus nimalar ijtimoiy huquqiy jihatlar. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) 14.04.2020

Пандемию могут сделать основанием для освобождением для контракта. [www.interfax.ru](http://www.interfax.ru) 704397

qilinishi hamda axloq odobning adolatli talablari ijtimoiy tartib hamda demokratik jamiyatdagi farovonlikning oqilona talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 12-moddasiga ko'ra xar bir inson o'z mamlakati xududi doirasida erkin ko'chib yurish huquqiga va yashash joyini erkin tanlab olish huquqiga egadir. Xar bir inson xar qanday mamlakatni, shu jumladan o'z mamlakatini tark etish huquqiga egadir, xech kim o'zboshimchalik bilan o'z mamlakatiga kirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Yuqorida belgilab qo'yilgan huquqlar xech qanday cheklash obyekti bo'lishi mumkin emas, qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, axoli sixat salomatligini yoki axloq odobini saqlash uchun, shuningdek boshqalarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasno.

Iqtisodiy ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 4-moddasiga ko'ra, inson huquqi va erkinliklarini cheklashning doirasi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra mazkur paktida ishtirok etuvchi xar bir davlat inson huquqlarini ro'yobga chiqarish sohasida shunday cheklashlarni belgilab qo'yishi mumkinki, bular birinchidan qonunda nazarda tutilgan bo'lishi, ikkinchidan bu cheklashlar mazkur cheklanayotgan huquqlarning tabiatiga uyg'un bo'lishi va uchinchidan bundan ko'zlangan maqsad faqat demokratik jamiyatdagi umumiy farovonlikni ta'minlashga ko'maklashishi lozim.

A.Burxonovning ko'rsatishicha, aholini ijtimoiy faollik darajasi yuqumli kasalliklar tarqalish darajasiga va epidimiologik jarayonga ham bevosita ham bavonsita ta'sir qiladi. Aholining ijtimoiy faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, yuqumli kasallikning tarqalish jarayoni ham shu qadar yuqori bo'ladi. Shu sababli ham u davlat tomonidan joriy etilgan cheklovchi choralar shaxs huquq va erkinliklarini buzishi to'g'risidagi nuqtai nazarni noto'g'ri deb xisoblaydi. Bir shaxs huquqining chegarasi ikkinchi shaxs huquqining chegarasi bilan tutashadi.

Epidemiya sharoitida cheklovchi choralar quyushqondan tashqari chiqmaydi. Bunday vaziyatda jamiyatni sihat salomatlik huquqi ustuvor imtiyozga ega.<sup>3</sup>

Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Paktning 12-moddasi 3-bandida aholi sihat salomatligini ta’minlash zaruriyati shaxs huquq va erkinliklarini cheklash asosi sifatida belgilab qo‘yilgani muallifning mushoxadalari inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga tayanishini ko‘rishimiz mumkin. Biznesmenlar va tadbirkorlar aholining eng faol qatlami xisoblanadi, bejizga “Tadbirkorlik faoliyati erkinliklarining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun”ning 3-moddasida tadbirkorlikning asosiy belgilaridan biri - bu tashabbuskorlik ekanligi belgilab qo‘yilmagan. Biznes - tadbirkorlikning ijtimoiy faolligi nafaqat ishlab chiqarish, xizmat ko‘satish, ish bajarish jarayonida balki biznesni tashkil etish, biznes partnyorlar o‘rtasidagi, biznes va davlat organlari o‘rtasidagi tizimli munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

## **2. Favqulotda vaziyatda biznes subyektlariga nisbatan davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar**

Pandemiya tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi shartnomaviy majburiyatlar ijrosiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ishlab chiqarish vaqtincha to‘xtatilgan korxonalar o‘z majburiyatlarini bajara olmadilar. Pandemiya va shartnomaviy majburiyatlar masalasi bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda materiallar e’lon qilinish boshlandi.<sup>4</sup>

Rossiya Oliy sudi tomonidan “Koronavirus” talqinlari: da’vo muddati va fors major loyihasi e’lon qilindi.<sup>5</sup> Unga ko‘ra pandemiya barcha toifadagi qarzdorlar uchun yengib bo‘lmaydigan kuchni universal holati sifatida e’tirof etilishi mumkin emas. Fors majorning mavjudligi xar bir muayyan ishdagi holatlarni aniqlash bilan belgilanishi lozim. Bunda majburiyatni ijro etish muddati, ijro oqilonaligi va insofliligi aniqlanishi lozim. Pandemiyani yengib

---

<sup>3</sup> А.Бурхонов. Приоритет не права личности а права на здоровее обществе. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) 21.04.2020

<sup>4</sup> Пандемию могут сделать основанием для освобождением для контракта. [www.interfax.ru](http://www.interfax.ru) 704397

<sup>5</sup> [Pravo.ru/news/220665](http://Pravo.ru/news/220665)

bo'lmaydigan kuch sifatida majburiyatni ijrosini amalga oshirishga to'sqinlik qilishini ko'rsatayotgan taraf o'z majburiyatlarini bajarish uchun va fors major oqibatlari keltirib chiqarishini kamaytirish uchun barcha oqilona choralarni ko'rganligini asoslashi shart. Pandemiya fors major xolati sifatida majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida qo'llanishidan manfaatdor taraf qo'yidagilarni isbotlab berishi shart:

- Yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining mavjudligi va davomiyligi;

- Vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari bilan majburiyatni ijro etib bo'lmaslik yoki kechiktirib ijro etish o'rtasida bevosita sabab oqibatning mavjudligi;

- Tegishli tomonni yengib bo'lmaydigan kuch holatlarini vujudga kelishiga aloqador emasligi va ushbu tarafni extiyotsizligi yengib bo'lmaydigan kuch holatlarini vujudga kelishiga olib kelmaganligi;

- Tegishli taraf tomonidan insofli ravishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf xatarlarni oldini olish yoki minimallashtirish choralarni ko'rilganligi;

Ushbu loyihada talqin etilayotgan holatlardan yana biri karantin davrida korxonada ish to'xtatilgan davr majburiyat ijrosi muddatini o'zgartirish uchun asos bo'lishi to'g'risidagi xulosadir.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash o'rinliki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 333-moddasi 3-qismiga ko'ra basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors major) tufayli bo'lganligini isbotlay olmasa javobgar bo'ladi.

Fors major holatining mohiyati shundaki, yengib, bo'lmaydigan kuch to'satdan paydo bo'ladi va qarzdor insofli asosda qarshi tursa ham majburiyatni bajarishga imkon topa olmaydi. Odatda fors major holatlari tabiiy ofatlar, xarbiy xarakatlar, ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi zabastovka ko'rinishidagi konfliktlar, davlat xokimiyat va idora organlarini qonuniy yoxud g'ayriqonuniy

xarakatlari xisoblanadi. Pandemiyani fors major deb xisoblash uchun uni tabiiy ofat xarakterida ekanligi va unga qarshi turish uchun davlat vakolatli organ tomonidan karantin, o‘zini-o‘zini cheklash, vaqtinchalik ishni to‘xtatish choralari ko‘rilgan xisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Sudlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi xududida “Koronavirus” infeksiyasi (KOVİD-19) tarqalishini oldini olishga qaratilgan choralar joriy etilishi munosabati bilan qonun hujjatlari qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2020-yil 28-aprelda qabul qilgan qarorida Fuqarolik Kodeksi 333-moddasi (majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari)ning 3-qismiga asosan basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha nazarda tutilgan bo‘lmasa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch ya’ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganini isbotlay olmasa javobgar bo‘ladi deb ko‘rsatildi. Plenum qarorida tushuntirish berilishicha, shu munosabat bilan sudlar majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda (neustoyka undirish, zaralarni qoplash, shartnomani bekor qilish va boshqalar) majburiyatlarni bajarmaslik sabablarini aniqlashi, agar majburiyatni bajarish yoki lozim darajada bajarish karantin shartlari joriy etilishi tufayli mumkin bo‘lmaganligini aniqlanganda talabni qanoatlantirishni rad etish lozim. Shu bilan birga karantin shartlari davrida protsessual xarakatlarni amalga oshirish imkoni bo‘lmagan holda, sudlar xar qanday protsessual muddatlarni uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazilgan muddat sifatida qonunda belgilangan tartibda tiklash masalasini xal etishi zarur. Agar karantin da’vo muddatining oxirgi olti oyida joriy etilgan yoki amal qilishni davom ettirib turgan bo‘lsa, da’vo muddatining o‘tishi to‘xtaladi. Da’vo muddatining to‘xtatib turilishiga asos bo‘lgan karantin barxam topgan kundan boshlab da’vo muddatining o‘tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da’vo muddati olti oydan kam bo‘lsa da’vo muddatiga qadar uzaytiriladi. Plenum

qarorida ta'kidlanishicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining koronavirus pandemiyasida aholining iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli Farmoni qoidalarini inobatga olgan holda, agar 2020-yil 1-oktyabrga qadar bo'lgan davr mobaynida kredit qarzdorligini undirish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda qarzdor tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar karantinning amal qilish davrida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganligi sababli kechiktirilganligi va shu sababli qarzdor kechiktirish huquqiga ega ekanligi aniqlanganda, arz qilingan talabni qanoatlantirish rad etilishi lozimligi sudlarga tushuntirildi. Bunday qaror joriy etilgan karantin rejimi qarzdorlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlanganda qarzdorlarning muddati o'tib ketgan kreditlariga jarima sanksiyalarini undirish va undiruvni garov ta'minotiga qaratish haqidagi da'volar bo'yicha ham qabul qilinishi belgilangandi.<sup>6</sup>

Pandemiya nafaqat fors-major holati, balki vaziyatni jiddiy o'zgarishiga xam asos bo'lishi mumkin. Fuqarolik Kodeksining 383-moddasida vaziyat jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asos sifatida belgilab qo'yilgan.

Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Vaziyatning taraflar oldindan ko'ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo'lgan darajada o'zgarishi uning jiddiy o'zgarishi hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o'zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo'lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi, FKning 383-moddasi

---

<sup>6</sup> Kun.uz 2020 yil 28 aprel 4251.

beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra esa — o‘zgartirilishi mumkin, agar ayni vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo‘lsa:

1) shartnomani tuzish paytida taraflar vaziyatda bunday o‘zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar;

2) vaziyatning o‘zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo‘lganidan keyin manfaatdor taraf shartnomaning xususiyatiga va muomala shartlariga ko‘ra o‘zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyotkorlik qilgan bo‘lishiga qaramay, bu sabablarni yenga olmagan bo‘lsa;

3) shartnomani uning shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy manfaatlarining shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o‘zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi oqibatida shartnoma bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini ular o‘rtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomaning o‘zgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo‘lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o‘zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu moddani qo‘llash xususiyatlari bo‘yicha Q.Mexmonov fikr muloxazalari diqqatga sazovordir. Masalan, deb yozadi u, pandemiyagacha bo‘lgan vaqtda MCHJ va savdo kompleksi o‘rtasida ijara shartnomasi tuzilgan pandemiya sababli kompleksning sanoat mollari, kiyim kechaklar sotiladigan seksiyalari o‘z faoliyatini to‘xtadi. Biroq oziq-ovqat, dori-darmon sotiladigan seksiyalar o‘z faoliyatini davom ettirdi. Oziq-ovqat, dori-darmon sohasida pandemiya vaziyatni jiddiy o‘zgartirgani yo‘q. Biroq, sanoat tovarlari va kiyim



kechaklar sohasida savdo sotiq to'xtatildi. Binobarin bu sohada vaziyat jiddiy o'zgardi va FKning 383-moddasini qo'llash uchun jiddiy asoslar mavjud.<sup>7</sup>

### **3. Favqulotda sharoitlarni biznes partnyorlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri, fors-major holatlar**

Fors major holatlari turli mamlakatlarda qonun hujjatlarida yoxud ish muomilasi odatlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, AQSHning bixillashtirilgan tijorat Kodeksida fors-major vujudga kelishi asoslarini a) huquqiy hujjatlarga rioya qilish b) tabiat xodisalari ta'siri v) yong'inlar, suv toshqini, urushlar, sabatajlar, baxtsiz xodisalar, mehnat nizolari, xom ashyolar, materiallar yoki qurilmalardagi kamchiliklar yoki ularni o'z vaqtida yetkazib bermaslik yoxud vujudga kelishi taraflarning nazoratidan tashqari bo'lgan xar qanday boshqa holatlar natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi xisoblanadi. Biroq FKning 333-moddasi 3-qismiga ko'ra uchinchi shaxslar tomonidan majburiyatlarni buzilishi majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi fors-major sifatida qaralmaydi. Buning ustiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2005-yil 15-fevraldagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlarini tasdiqlash to'g'risidagi" Nizomda fors-major holatlari doirasi qisqartirilgan holda talqin etiladi. Unga ko'ra fors-major O'zbekiston Respublikasi xududida sodir bo'lgan, tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat xodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni ta'qiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tashqi savdo bitimlari (shartnomalar) va xalqaro shartnomalar bo'yicha tomonlarga qabul qilgan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulotda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Bunda fors-major holatlari tashqi savdo bitimlari va xalqaro shartnomalar doirasi bilan cheklanmoqda. To'g'ri, Fuqarolik kodeksining 333-moddasi fors-majorni xar qanday fuqarolik huquqiy majburiyat bo'yicha joriy etmoqda. Bunda

---

<sup>7</sup> Kun.uz//1988

asosiy shart yengib bo'lmaydigan kuch va favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan sharoit xisoblanadi. Fors-major holatlari bo'yicha eng batafsil tushuntirish bu Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan taklif etilgan fors-major va mushkul vaziyatlar (hardchip) pisandasi xisoblanadi. Amaliyotda ushbu pisanda taraflar tomonidan unga nisbatan bevosita xavola tarzida ham yoxud shartnomalarda yana-da konkretlashtirilgan holda bayon etish holatlari orqali ham qo'llanadi. Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan taklif etilgan pisandada majburiyatni bajarishdan ozod etish uchun asos sifatida quyidagi holatlar mavjudligi belgilangan.

Majburiyatni bajarmaslik taraflar nazoratidan tashqarida bo'lgan to'sqinliklar natijasi bo'lishi lozim;

Taraflar shartnoma tuzayotganda bunday to'sqinliklar va uning oqibatlarini oldindan ko'ra olmaganliklari oqilonalik talabi asosida belgilanishi lozim;

Qarzdor insofli asosda xarakat qilgan holda ushbu to'sqinliklar va uning oqibatlarini oldini olish yoki bartaraf etish imkoniyati bo'lmasligi lozim.

Pisandada to'sqinliklarni vujudga keltiruvchi holatlarni ochiq ro'yxati keltiriladi. Pisandalarni qo'llashning yana bir muhim asosi bu shartnomada qarzdor to'sqinliklarni vujudga keltiruvchi holatlar bo'yicha tavakkalchilik xavf-xatarini o'z zimmasiga olmaganlik xisoblanadi. Agarda u shartnomada o'z sherigini, investorni, kreditorni ishontirish uchun muayyan holatlar bo'yicha tavakkalchilik holatini o'z zimmasiga olgan bo'lsa fors-major pisandasini qo'llashini talab eta olmaydi, chunki, bu pisandani qo'llash imperativ emas dispozitiv norma asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 333-moddasida xam fors-majorni belgilovchi norma dispozitiv xarakterga ega. Fors-major pisandasini qo'llash asoslaridan yana biri bo'lib, to'sqinliklar ta'siriga duchor bo'lgan taraf bunday vaziyatga duch kelishi bilan darxol boshqa tarafni xabardor qilishi sharti xisoblanadi. Agarda xabardor qilish kechiktirilsa, bu xolda xabardor qilingan paytdan boshlab fors-major pisandasini qo'llash mumkin bo'ladi, xabardor qilmaslik esa xabardor qilinishi sababli oldini olish mumkin bo'lgan zararlarni qoplash majburiyatini xabardor qilmagan tomon

zimmasiga yuklash huquqini beradi. Fors-major pisandasining qoidalaridan yana biri shuki, pisanda bo'yicha majburiyatni bajara olmagan qarzdor zararni qoplash, jarimalar to'lash va shartnoma bo'yicha boshqa sanksiyalarni qo'llanishdan ozod bo'ladi biroq, pul majburiyatlari bo'yicha yillik foizlarni to'lash majburiyati bundan mustasno. Fors-major orqali majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etish oqilona muddatga majburiyat ijrosini kechiktiradi va shu muddat davomida boshqa tomon shartnomadan voz kechish yoki bekor qilish huquqiga ega bo'lmaydi, bu esa shartnomaviy munosabatlarni saqlab qolishga imkon beradi. Xar bir taraf shartnomaviy munosabatlarni bekor bo'lgunga qadar bajarilishi natijasida olingan narsalarni saqlab qolishi mumkin. Xar bir taraf bunday bajarish natijasida xar qanday asossiz boyish bo'yicha boshqa tomonga xisobot berishi shart. Moliyaviy xisob kitoblar bo'yicha to'lovlar kechiktirilmasdan amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatimizda pandemiya sharoitida tadbirkorlik subyektlariga fors-major holatini yuridik faktini tasdiqlash bo'yicha dalil isbotlar to'plashda yordam ko'rsatilmoqda. Jumladan, fors-major holati to'g'risida sertifikatni rasmiylashtirish uchun Savdo sanoat Palatasiga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

A) murojat qilish sabablari va asoslari batafsil ko'rsatilgan ariza;

B) shartnoma nusxasi va ilovalari;

V) arizachi huquqini belgilovchi va ro'yxatga olish hujjatlari;

G) vakolatli organlar hujjatlari. Shu jumladan davlat organlarining ta'qiqlovchi va cheklovchi choralari, ariza beruvchi arizada fors-major holati sifatida xavola qilgan xodisani tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Ba'zi adabiyotlarda keng tarqalgan fors-major xaqida bir xato fikr to'g'risida to'xtab o'tish lozim. Bunga ko'ra go'yoki fors-major zarar va ziyonlarni taqsimlash bo'yicha status-kvo xolatini keltirib chiqaradi ya'ni qanday bo'lsa shunday qolsin. Buning mohiyati shuki, fors-major holatida kim qanday zarar ko'rsa, o'sha zarar unda amalda qoladi. Kontragentga xech qanday qoplash xaqida talab qo'ya olmaydi. Bunday fikr xato ekanligini Yevrokomissiya

tomonidan qabul qilingan qaror yaqqol ko'rsatdi. Yevrokomissiya pandemiya sababli samalyot parvozlari bekor qilingani uchun biletlar pulini qaytarish yoki ularni vaucherlashtirish majburiyatini aviakompaniyalar zimmasiga yukladi. Demak, fors-major xech qachon asossiz boyishga xizmat qilmasligi lozim.

Pandemiya fors-majorning huquqiy asoslari bo'yicha ham turli baxs munozaralarni keltirib chiqardi. Fikrimizcha, fors-major holati davlatlarning qonunlari bilan emas, ish muomilasi odatlari bilan tartibga solinmog'i lozim. Xozirgi ko'pchilik amaliyotda fors-major bo'yicha Xalqaro Savdo Sanoat Palatasi tavsiyalari bunday vazifani bajarmoqda. Davlat fors-majorni huquqiy tartibga solishi maqsadga muvofiq emas, chunki, davlatning o'zi fors-majorni vujudga keltiruvchi katta guruxdagi xarakalarni sodir etadi. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining yangi loyihasida 382-moddasida majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslarini belgilashda fors-majorga nisbatan amaldagi FK 333-moddasidan farqli ravshida normalar belgilangan. Birinchidan, fors-major majburiyatni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun asos emas, balki majburiyatni bajarmagan qarzdorni aybsiz ekanligini belgilovchi asosdir. Ikkinchidan, fors-major holatlari nafaqat tadbirkorlik munosabatlariga balki notadbirkorlik munosabatlariga ham majburiyatni bajarmagan qarzdor uchun aybsizligini belgilovchi holat xisoblanadi. Fikrimizcha tadbirkorlik subyekti va notadbirkorlik subyekti huquqiy holati bo'yicha keskin farq qiladi. Tadbirkorlik faoliyati tavakkalchilikka asoslangan faoliyat, binobarin uning javobgarlik darajasi yuqori va xar ikkala holatni bir xil qarich bilan o'lchash adolatdan emas. Fors-major sharti dispozitiv shart. Taraflar uni e'tiborga olmasliklari ham mumkin. Ba'zi hollarda investorlarga kafolat berish uchun investitsiya qabul qiluvchi tomon fors-major holati bo'yicha zararlarni o'z zimmasiga oladi. Shu sababli ham FKning amaldagi konstruksiyasini saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.

Pandemiya va biznes munosabatlarini qisqa muddatli jarayonini kuzatish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, davlat pandemiya sharoitida to'liq huquqiy maydonda xarakat qildi va xalqaro huquq normalariga

muvofiq huquqiy rejim belgiladi, favqulotda cheklovchi choralar oqibatlarini yumshatish uchun davlat o'z vakolat doirasida biznes uchun qator yengilliklar, imtiyozlar joriy etdi, subsidiyalar, soliq ta'tili va shu kabi preferensiyalar tizimini qo'lladi. Ayni paytda biznes ham pandemiya tufayli vujudga kelgan shart sharoitlardan suiste'mol maqsadlarda foydalanishdan o'zini tiydi (tovarlar narxini keskin oshirishdan). Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga pandemiya ta'sirining huquqiy maydonga ko'chirish mexanizmi yaratilmoqda. Bu fors-major oqibatlarini qo'llash, vaziyatni jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnoma shartlarini o'zgartirish, shartnomaviy majburiyatlar ijrosini kechiktirish va shu kabi holatlarni qo'llash bo'yicha huquqni qo'llash va sud amaliyotini shakllanish jarayonida namoyon bo'lmoqda. Agar kelgusida ham tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu mexanizm asosida vujudga kelgan huquqiy maydonda amalga oshirilsa, pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo'yicha yangi huquq tartibot tizimi vujudga kelishini bashorat qilish mumkin. Bu esa mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Nazorat savollari:**

- 1 Favqulotda sharoitlarda biznesni huquqiy tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslarini ayting.
2. Favqulotda vaziyatda biznes subyektlariga nisbatan davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar qaysilar?
3. Favqulotda sharoitlarni biznes partnyorlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri qanday?
4. Fors-major holatlar haqida gapiring.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **1-amaliy mashg‘ulot. Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqi va biznes huquqining o‘rnini aniqlash**

#### **1-topshiriq**

Fuqaro yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan o‘z uyida pishirgan shirinliklarni avtobus bekatida ko‘chma savdoni tashkil etish yo‘li bilan sotishni yo‘lga qo‘ydi. 1 oydan so‘ng tuman soliq inspeksiyasi xodimlari fuqaroni yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tib, belgilangan soliqlarni to‘lashi haqida ogohlantirishdi. Ammo fuqaro pandemiya sharoitida ko‘chma savdoga erkin ruxsat berilganini vaj qilib, soliq organining e‘tirozlarini inkor etdi va o‘z faoliyatini hech ikkilanmay davom ettirdi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **2-topshiriq**

Fuqaro Salimova Malika juda mirishkor ayol. Uyda o‘tirib oilasiga qo‘shimcha daromad keltirish uchun doim harakat qiladi. Qaramog‘ida 30ga yaqin tovuq va xo‘rozlari, 4ga yaqin sog‘in sigirlari ham bor. 14 sotix hovlisiga poliz ekinlari ekib yetishtiradi. Ro‘zg‘ordan orttirib ko‘cha boshidagi do‘konchaga ham har kuni sut, qatiq, tuxum va poliz mahsulotlarini yetkazib turadi. Fuqaro Salimova Malikani mahalladagilar “tadbirkor ayol” deb maqtaydi.

**Qonun nuqtai nazaridan Fuqaro Salimova Malikaning daromad olishi tadbirkorlik hisoblanadimi?**

## **2-amaliy mashg'ulot. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

### **1-topshiriq**

“Yulduz” MCHJ Ipoteka ATIB Mirobod filialidan 95 mln so‘mlik kredit olish uchun garov sifatida o‘ziga tegishli bo‘lgan tennis korti binosini garovga qo‘ydi. Oradan bir oy o‘tgach MCHJ da ulushga ega bo‘lgan G‘aniyev MCHJ ning tennis korti binosini garovga qo‘yish masalasi muhokama qilingan umumiy yig‘ilishi majlisida qatnashmaganligi hamda yuqorida nazarda tutilgan summadagi kredit shartnomasi yirik bitim hisoblanganligi tufayli mazkur shartnomani haqiqiy emas deb topish haqida Toshkent shahar Xo‘jalik sudiga da’vo yuilan chiqdi. Toshkent shahar Xo‘jalik sudi tomonidan Yulduz MCHJ ning tennis korti binosini garovga qo‘yish masalasi muhokama qilingan umumiy yig‘ilishi majlisi bayonnomasi haqiqiy emas deb topilib, mazkur tennis korti binosini garovga qo‘yish haqidagi bank bilan tuzilgan garov shartnomasi ham bekor qilindi. Natijada Yulduz MCHJ va ATIB Mirobod filiali o‘rtasidagi kredit shartnomasi garov bilan ta’minlanmay qoldi.

*Mazkur vaziyatda yurist sifatida bankka qanday yo‘l tutishi mumkinligi haqida maslahat bering.*

*MCHJda ulushlarga ega bo‘lingan sheriklarning huquqlariga to‘xtalib, yirik bitimning mohiyatini ochib bering.*

*Mazkur kazusga javob yozishda turli olimlarning mulohazalaridan iqtiboslar keltiring.*

### **2-topshiriq**

Fuqaro M.Boltayev o‘z oilasi bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun oilaviy korxonaga tashkil qilgan edi. U shu tumanda joylashgan "Chicken star" MCHJ bilan sut va go‘shni maxsulotlari yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzolagan edi. Shartnoma shartlariga ko‘ra M.Boltayev xar oyda 2000 litr sut va 1000 kg mol go‘shni yetkazib berishi kerak edi. Go‘shni va sut savdosi bilan shug‘ullanadigan “Chicken star” MCHJ esa bu tovarlar pulini

xar oyning boshida va o'rtasida ikkiga bo'lib to'lashi lozim edi. Ammo M.Boltayev shartnoma shartlarini buzib bir necha oy davomida kelishilgan maxsulotni yetkazib bermadi. Natijada "Chicken star" MCHJ yetkazilgan zararni undirish uchun sudga murojaat qildi. Sud yetkazilgan zarar M.Boltayevning oilaviy korxonasi mulkidan undirish, bu mulk yetmagan summa esa oilaviy korxonada ishtirokchilari va unda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarning mulkidan subsidiar tarzda undirish xaqida qaror chiqardi. Oilaviy korxonada raxbari M.Boltayev esa sudning bu qarori ustidan yuqori instansiyaga shikoyat qilib, zarar faqat oilaviy korxonaning mulkidan undirilishi kerakligini aytdi. Yuqori instansiya sudi esa quyi instansiya sudining qarorini qisman o'zgartirib, faqat oilaviy korxonada mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarni mulkidan undirilsin degan qismini bekor qildi. Qolgan qismini esa o'zgarishsiz qoldirdi.

**Vaziyatni qonunchilik asosida tahlil qiling.**



### **3-amaliy mashg'ulot. Bitimlarning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini huquqiy tartibga solish**

#### **1-topshiriq**

Da'vogar MCHJ javobgar AJga nisbatan sudga da'vo arizasi bila murojaat qilib, ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan, tomonlar o'rtasida ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan, unga asosan MCHJ o'zining balansida bo'lgan ma'muriy binoni 13.629.818 so'mga sotishni AJ esa ushbu ko'chmas mulk uchun oldindan 10 kun muddat ichida bo'nak to'lashi, qolgan summani bir yil ichida bo'lib – bo'lib to'lash majburiyatini olgan. AJ to'lovni qisman amalga oshirgandan so'ng, qabul qilish dalolatnomasiga asosan bino AJga topshirilgan, bino mazkur shartnoma notarial tasdiqlanmagan, hamda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan, AJ to'lovni to'liq amalga oshirmasdan binodan foydalanib kelgan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering? Nizo bo'yicha sud qanday hal qiluv qarorini qabul qilishi lozim, o'z xulosalangizni fuqarolik qonun hujjatlari asosida hal eting.**

#### **2-topshiriq**

Davlat ta'lim muassasasi tegishli o'quv dasturlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning ta'lim to'lovlarini to'lash shartnomalariga binoan mutaxassislarni tayyorlaydi. Davlat ta'lim muassasasi bilan shunday bitim tuzgan talabalardan biri ushbu shartnomaning huquqiy mohiyati to'g'risida savol bilan yuridik maslahatxonaga murojaat qildi. Bundan tashqari, u davlat ta'lim muassasasi tomonidan pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tadbirkorlik faoliyati ekanligini va qanday sharoitlarda ta'lim muassasasi bunday faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligini tushuntirishni so'radi.

**Vaziyatga huquqiy yechim berishga harakat qiling.**

#### **4-amaliy mashg'ulot. Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari**

##### **1-topshiriq**

“O‘zbekiston 24” telekanali va UCELL kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, telekanal kompaniyaning yangi ta’rif rejalari haqidagi reklamani 1 oy har kuni soat 20.55 da efirga uzatishga kelishildi. Ammo Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosim to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilishi munosabati bilan bu reklama oyning faqat bir kunida 22.55 da efirda berildi. UCELL kompaniyasi shartnoma shartlari buzilganligi uchun telekanalda yetkazilgan zarar qoplanishini talab qildi. Biroq “O‘zbekiston 24” telekanali zararni to‘lashdan bosh tortdi.

**Vaziyatga reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib, huquqiy baho bering.**

##### **2-topshiriq**

Fuqaro Egamov yosh tadbirkorlardan biri. U O‘zbekistondagi eng yirik va moliyaviy jihatdan ancha barqaror bo‘lgan “Parvina bank”ning omonat jamg‘armasiga 50 000 000 so‘m pul mablag‘larini omonatga qo‘ygan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu bankning moliyaviy ahvoli og‘irlashib bordi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunining 53-moddasi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasiga asosan, amaldagi bank qonunchiligi talablarini buzganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Parvina bank” tijorat bankidan bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib oldi.

Tadbirkor Egamov sizdan yuridik yordam olish uchun murojaat qilib, uning omonatga qo‘ygan mablag‘larining taqdiri nima kechishi, qanday qilib o‘z omonatini qaytarib olishi, uning tartibi va asoslari, shuningdek bankning tugatish tartibi va bunda omonatchilar huquqlarining kafolatlari bo‘yicha huquqiy maslahat so‘radi.

**Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.**

## **5-amaliy mashg'ulot. Maxsus iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari**

### **1-topshiriq**

Navoiy viloyat hokimi tomonidan viloyat hududini obodonlashtirish maqsadida viloyat hududidagi barcha korxonalar, tashkilot va muassasalarga ma'lum belgilangan hudud ajratib berildi va ushbu hududni infratuzilmasini rivojlantirish va ko'kalamzorlashtirishni o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Ammo, Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona ma'muriyati viloyat hokimi qarori ular uchun majburiy xarakterga ega emasligini va u Erkin industrial-iqtisodiy zonalar bo'yicha respublika ma'muriy kengash orqali faoliyatini amalga oshirishini hamda erkin industrial-iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlarni vaj qilib, qaror ijrosini amalga oshirishini ma'lum qildi.

**Mazkur holatga huquqiy baho bering.**

### **2-topshiriq**

Ta'rischilar aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Epsilon Galaxy" (xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi)ni tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga murojaat qilishdi. Ta'rischilar xorijiy muassis to'g'risida yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi savdo reyestridan ko'chirmani ham taqdim qilishdi. Biroq, Vazirlik bevosita ushbu vakolat unga berilmaganligini, bu borada tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda huquqiy yordam berish mumkinligi, tashkiliy huquqiy shaklni tanlashda esa xorijiy investorlar uchun mas'uliyati cheklangan jamiyatini ochish lozimligi hamda ro'yxatdan o'tish uchun Adliya vazirligi va Soliq qo'mitasiga murojaat qilishni bildirdi. Qonunchilikda belgilangan hujjatlarni to'plash uchun ta'rischilar advokatga murojaat qildi. Advokat esa xorijiy muassisning korxonalar (tashkilot) ustav fondidagi ulushi intellektual mulk bo'lsa, Intellektual mulk agentligidan ruxsat olish lozimligini ta'kidladi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## V. KEYSLAR BANKI

Amaliy yoʻnaltirilgan, koʻnikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar oʻz xususiyatlariga koʻra innovatsion hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli oʻyinlar (TFOʻ), ishchan va rolli oʻyinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, yaʼni keyslardan foydalangan holda oʻquvchilarda aniq koʻnikmalarni shakllantirish texnikasidir

*Keys* — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida oʻquvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini koʻrib chiqish, mumkin boʻlgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash soʻraladi.

Ixtiyoriy *keys* oʻqituvchiga, uni taʼlim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, oʻqitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish *imkoniyatini* beradi.

### 1-masala

Fuqaro A. tijorat bankiga yillik 24% toʻlash sharti bilan bir yilga 100.000.000 soʻm muddatli omonatga pul mablagʻlarini qoʻyadi. Omonat uchun har oyda foizlarni olib keldi. Biroq, zarurat boʻlganligi sababli fuqaro A. omonatning 10 oyida omonatini qaytarib olishga qaror qildi. Bunga bank norozi boʻldi. Chunki, bank omonati shartnomasi muayyan muddatga saqlash haqida tuzilgan edi.

Masala qanday hal qilinadi. Fuqaro A.ning omonatga qoʻygan mablagʻlarini qaytarish tartibini aniq misollar bilan tushuntiring.

## **2-masala**

Fuqaro Lapasov sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, "Sheraton" mexmonxonasidan 3000 \$ undirishni so'radi. Ushbu mexmonxonadan so'ralayotgan bahodagi Lapasovning ashyolari: kostyum, plash va elektrobritva yo'qolgan edi. Sud jarayonida mehmonxona vakili Lapasovni umumiy nomerda yashaganligi va ashyolarini kamera xraneniyaga topshirishi lozimligini, biroq u ushbu harakatlarni amalga oshirmaganligini ma'lum qildi. Bundan tashqari, da'vogar mexmonxona ma'muriyatiga ushbu ashyolar haqiqatda bo'lganligini isbotlab bera olmaydi. Lapasov bilan bir xonada yashovchi guvohlar esa, Lapasovda haqiqatan ham kostyum, plash va elektrobritva mavjud bo'lganligini tasdiqlashgan.

Ushbu ish bo'yicha xulosa bering.

## **3-masala**

Fuqaro Abrorov 1/20 ulush merosxo'r sifatida meros guvohnomasini oldi. U ushbu ulushdan norozi bo'lib, meros qoldiruvchi ya'ni, otasi muomalaga layoqatsiz shaxs bo'lganligi, bu haqda fuqarolik ishlari bo'yicha sudning 2013 yil 10 apreldagi qarori mavjudligi sababli vasiyatnomani haqiqiy emas deb topishni so'radi. Meros qoldiruvchining boshqa merosxo'rlari esa, bunga e'tiroz bildirib, vasiyatnoma 2013 yil 5 aprelda rasmiylashtirilganligi, meros qoldiruvchining muomalaga layoqatsizligi esa, 5 kun o'tgach aniqlanganligini ta'kidlashib, qarshi da'vo ariza berishdi. Qarshi da'vo arizada fuqaro Abrorovning ulushi arzimasi va unga kompensatsiya berilishini talab qilishdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

## **4-masala**

Fuqaro Boliyev matematika sohasida shu vaqtga qadar fanda o'z yechimini topmagan, yangi teoremani isbot qildi. Ushbu teoremani jurnallarga yuborishdan

oldin notariusga murojaat qilib, teoremani isboti yozilgan qo‘lyozmani tuzilish sanasini guvohlantirishni so‘radi. Notarius bunga e‘tiroz bildirdi va mualliflik huquqi ustuvorligi sanasini guvohlantirish notariat to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilmaganligini ta‘kidladi. Fuqaro Boliyev esa, notariat to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa ham, notarial guvohlantirish mumkinligi sababli notarial guvohlantirishni talab qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **5-masala**

Fuqaro Saidov jismoniy kamchiligi – barmoqlari yo‘qligi sababli o‘zining qo‘shnisi fuqaro Pulatovdan uning uchun fuqaro Davronovdan 15 mln. so‘m qarz olganligi to‘g‘risidagi bitimni imzolashni so‘raydi. Belgilangan muddat o‘tgandan so‘ng Davronov qarzni qaytarishni so‘raydi. Saidov esa uning mablag‘lari yo‘qligi sababli talabni qanoatlantirmasligini ma‘lum qiladi. Shundan so‘ng

Davronov sudga murojaat qiladi.

### **6-masala**

Fuqaro D. o‘zining nomidan oldi-sotdi shartnomasi tuzish uchun fuqaro T.bilan topshiriq shartnomasini imzolaydilar. T. Ham bevosita xuddi shu harakatlarni amalga oshirish uchun fuqaro Yu.ga topshiriq shartnomasi asosida ishonchnoma bergan.

Savol: T. O‘ziga berilgan vakolatlarni boshqa shaxsga topshirishga haqlimi? Yu.ning xarakatlari natijasida kelib chiqqan huquqiy oqibatlar kimning huquq va manfaatlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

### **7-masala**

Fuqaro Ravshanov va Soliyevalar unashirilgan edi, lekin Soliyeva hali nikoh yoshiga, ya‘ni o‘n yettiga to‘lmagan edi. Ammo vaziyat taqozosi etib, zudlik bilan to‘y qilishga to‘g‘ri keldi. Chunki Ravshanovning bobosi og‘ir betob edi. Lekin tuman FHDYO bo‘limi Soliyevaning nikoh yoshiga yetmaganligini vaj qilib yoshlarning arizalarini rad etdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

## **8-masala**

Fuqaro Olimov o'z kvartirasini fuqaro Aliyevga ijaraga berdi. Ikki o'rtada tuzilgan ijara shartnomasiga asosan Aliyev kvartirani soz va ozoda saqlashi kerak edi, lekin ma'lum bo'ldiki, shartnoma tuzilgandan bir oy o'tib kvartiradagi arim jihozlarga jiddiy ziyon yetgan. Olimov shartnomani bekor qildi va Aliyevdan uyga yetkazilgan zararni, shuningdek, tuzatishga ketgan bir oy muddat uchun ijara haqini ham talab qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

## **9-masala**

Fuqaro Sobirov "Malika" savdo majmuasiga noutbuk sotib olish uchun keldi va 11 A sonli do'kondan "Asus" markali noutbukni sotib olishga qaror qildi, pulini esa o'ziga qarashli plastik kartochka orqali to'lamoqchi bo'ldi. Lekin do'kon sotuvchisi Sobirovga agar naqd pul ko'rinishida to'lov qilsa, kelishilgan narxda berishini, ammo plastik kartochka orqali to'lov qilsa to'lovning o'n foizi miqdorida qo'shimcha pul yechib qolishini ma'lum qildi.

Sobirov qanday harakatni amalga oshirishi kerak.

## **10-masala**

Usmonov o'ziga qarashli "iPhone X" markali telefonini yo'qotib qo'ydi. Qidiruv natijasida telefon fuqaro Komilovda ekanligi va o'g'irlanmaganligi, aynan topib olinganligi ma'lum bo'ldi. Usmonov Komilovdan telefonni talab qilganida esa Komilov topib olingan telefonni shunchaki berib yubormasligini, hech bo'lmasa, telefon narxining qirq foizini berishini talab qildi.

Usmonov qanday yo'l tutishi kerak?

## **11-masala**

Shodiyev "Xo'jalik mollari" do'konidan qirq metr polietilen quvurini xarid qildi. Ushbu quvurni do'konda tekshirib olish imkoni yo'qligi sababli uyiga kelib tekshirdi va nuqsoni borligini hamda ushbu kamchilik o'z vazifasi uchun foydalanishga to'sqinlik qilar edi. Oradan bir kun o'tib, quvurni almashtirish

uchun do‘konga olib kelganda sotuvchi aynan shu turdagi quvur yo‘qligini, kutib tursa o‘n kunlik muddatda yangi mollar kelishini ta’kidladi. Shodiyev esa u holda quvurni qaytarib olib pulini qaytarishni talab qiladi. Sotuvchi esa bu talabni rad qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **12-masala**

Ipoteka bankning filiali va MCHJ o‘rtasida kredit shartnomasi tuzildi. Majburiyatning bajarilishini ta’minlash maqsadida, kredit qarzi va unga hisoblangan foizlar belgilangan jadvaldan kechiktirilgan holda to‘lanadigan bo‘lsa, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4 foiz miqdorida, ammo qarz summasining 80 foizidan oshiq bo‘lmagan miqdorda penya hamda majburiyatning bajarilmagan qismining 25 foizi miqdorida jarima to‘lashi to‘g‘risida shart qo‘yildi.

Bankning penya va jarima undirishni talab qilishi to‘g‘rimi? Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **13-masala**

Fuqaro Alimov oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olgan uy-joyi uchun qo‘shni ko‘chmas mulk (yer uchastkasi, boshqa ko‘chmas mulk) egasi qo‘shnisi fuqaro Botirovdan o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda, ya’ni o‘zi uyiga elektr uzatgich, aloqa va quvur liniyalarini o‘tkazish va ulardan foydalanish, suv bilan ta’minlash uchun foydalanish (servitut) huquqini berishni so‘radi. Fuqaro Asadovga yer uchastkasiga servitut belgilanishi uning uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etishligini ta’kidlab, qo‘shnisi fuqaro Rustamovning iltimosini rad qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **14-masala**

“Agromashlizing” aksiyadorlik kompaniyasi va “Fayoz” fermer xo‘jaligi o‘rtasida traktorni lizingga olish bo‘yicha lizing shartnomasi tuzildi. Lizing shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lashga harakat qilindi. Biroq, lizing



to'lovining 75% to'lashga ulgurilgan holda fermer xo'jaligi qolgan qismini to'lay olmadi. Lizing shartnomasi bo'yicha sotib olib lizing oluvchiga topshirilgan traktor lizing beruvchining bankdan olgan krediti ta'minoti sifatida bankka garovga qo'yilgan. Biroq, ushbu garov shartnomasini tuzishda lizing oluvchining roziligi olinmagan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **15-masal**

Fuqaro Kabulov MCHJ bilan kelgusida avtomobilni sotib olish sharti bilan dastlabki ijara shartnomasini tuzgan. Shartnoma yozma ravishda tuzilib, muddati belgilandi. Oradan bir yarim yil o'tgandan so'ng garchi barcha to'lovlar to'lab berilgan bo'lishiga qaramasdan avtomobilga nisbatan oldi-sotdi shartnomasi tuzilmadi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **16-masala**

"Iroda" MCHJ direktori "Parvona" MCHJ bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzadi. Shartnoma shartlariga ko'ra, "Iroda" MCHJ "Baxor" xususiy korxonasiga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni topshirishi lozim edi. Ushbu shartnoma qiymati "Iroda" MCHJ ustav fondining 25%ni tashkil qiladi va direktor "Baxor" xususiy korxonasidan ko'chmas mulkni tasarruf etish borasida ishonchnoma olgan edi. Ushbu shartnoma haqiqiyliги borasida nizo kelib chiqdi. "Iroda" MCHJning fikricha, u har qanday bitim tuzish bo'yicha ustav asosida harakat qilgan. Biroq, muassislar bunga rozilik bildirishmadi va sudga bitimni haqiqiy emas deb topish haqida murojaat qiladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **17-masala**

Surxondaryo magistral yo'li rekonstruksiya va joriy ta'mirlanishi munosabati bilan viloyat hokimining "Kuvonch" bo'yoq zavodi mas'uliyati

cheklangan jamiyatini tugatish to'g'risida qarori qabul qilinadi va qaror bilan yangi yuridik shaxs tashkil qilish uchun shahar chekkasidan yer uchastkasi ajratishga rozi bo'ladi. Ushbu qarordan "Kuvonch" bo'yoq zavodi mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori rozi bo'lib, faoliyatini tugatish harakatlarini boshlab yubordi. Bundan xabardor bo'lgan jamiyatning ta'sischilari direktorni harakatlarini noqonuniy deb baholadi va sudga hokim qarorini bekor qilishni so'rab murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **18-masala**

14 yoshga to'lgan voyaga yetmagan Karimov ota-onasi boshqa respublikada ishlashi sababli o'zining buvisi Xolmatovalarnikida yashardi. Bir kuni uyida hech kim yo'qligidan foydalanib, ular buvisining uyida ijarada yashovchi Olimovaning xonasiga kirib pullarini o'g'irladi. Vaziyatdan xabardor bo'lingandan so'ng ushbu pullar voyaga yetmagan Karimovdan topildi.

Olimova Karimov tomonidan keltirilgan zararni undirish maqsadida Xolmatova ustidan shikoyat qilib sudga da'vo ariza beradi.

Fuqarolik sudi Xolmatovadan voyaga yetmagan bola tarbiyasiga e'tiborsiz qaraganligi va uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanmaganligi uchun 5 000 000 so'mni undirish haqida qaror qabul qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **19-masala**

Fuqaro Axmedov o'zining farzandi 12 yoshli Davronning tarbiyasida ishtirok etmaganligi va ota-onalik huquqini suiiste'mol qilganligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum qilindi. Oradan 2 yil vaqt o'tgandan so'ng Davron bezorilik sodir etib fuqaro Maxmudovning mol-mulkiga zarar yetkazdi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qaroriga ko'ra, yetkazilgan zararni qoplash majburiyati fuqaro Ahmedovga yuklatildi. Bundan Axmedov norozi bo'ldi. Uning fikricha, u ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. FKning 993-moddasi 1-qismiga ko'ra, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan (kichik yoshdagi bola) tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning ota-onasi (farzandlikka

oluvchilari) yoki vasiylari, agar zarar ularning aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, javobgar bo'ladilar

Vaziyatga huquqiy baho bering.

### **20-masala**

Fuqaro Akmalov tomonidan fuqaro Zafarovning sog'lig'iga zarar yetkazildi. Ushbu ish fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qaroriga ko'ra, fuqaro Akmalov 25 million so'm zararni qoplashi belgilandi. Biroq, oradan 2 oy o'tgandan so'ng, zarar qoplanmasdan oldin fuqaro Akmalov vafot etdi.

Uning merosxo'rlari esa, yetkazilgan zarar uchun javob bermasliklarini, zarar yetkazganlik uchun javobgarlik shaxsiy xususiyatga egaligini ma'lum qilishdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

## VI. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Xususiy huquq</b>	umumiy manfaatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi ommaviy huquqdan farqli ravishda shaxsiy manfaatlar, shaxsiy munosabatlar va mulkiy faoliyatda fuqarolar va yuridik shaxslarning mustaqilligi va tashabbuskorligini tartibga soluvchi huquq sohalari yig'indisini anglatuvchi tushuncha	in contrast to public law, which regulates and protects the common interest, the concept is a set of areas of law that regulate the independence and initiative of citizens and legal entities in personal interests, personal relationships and property activities
<b>Fuqarolik huquqi</b>	qit'a huquq tizimida alohida va mustaqil huquq sohasi bo'lib, a'anaviy tarzda ishtirokchilarning tengligiga asoslanadigan hamda mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabat deb ataladigan shartli guruhlarga jamlangan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi	is a separate and independent branch of law in the continental legal system, which provides for the legal regulation of social relations, traditionally based on the equality of participants and grouped into conditional groups called property and personal non-property relations
<b>Biznes huquqi predmeti</b>	tadbirkorlik subektlarining tashkiliy-huquqiy, ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish, subektning ichki tuzilmalari o'rtasidagi, davlatning tadbirkorlik subektlari faoliyatiga umumiy rahbarligi bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi	organizational and legal relations of business entities, production, performance of works and services, between the internal structures of the entity, the general management of the state in the activities of business entities
<b>Tijoratchi tashkilot</b>	foyda olishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilot	organization pursuing profit making as the main goal of its activities
<b>Termin</b>	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Tijoratchi tashkilot</b>	foyda olishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilot	organization pursuing profit making as the main goal of its activities
<b>To'liq shirkat</b>	ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan	partnership, the participants of which, in accordance with the agreement concluded between them, are engaged in entrepreneurial activity on behalf of the partnership and are responsible for its obligations with all property

	shirkat	
<b>Mas'uliyati cheklangan jamiyat</b>	bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat	a company founded by one or more persons, the authorized capital (authorized capital) of which is divided into shares of the sizes determined by the constituent documents
<b>Aksiyadorlik jamiyati</b>	ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat	company, the authorized capital of which is divided into a certain number of shares
<b>Termin</b>	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Bitim</b>	fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari	actions of citizens and legal entities aimed at establishing, changing or revoking civil rights and duties
<b>Nizoli bitim</b>	Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bitim	an agreement declared invalid by a court on the grounds set out in the Civil Code
<b>O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim</b>	Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan asoslardan qat'i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadigan bitim	an agreement that is deemed invalid regardless of the grounds set out in the Civil Code
<b>Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim</b>	bitim yuzasidan kelib chiquvchi taraflarning huquq va majburiyatlari to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish, ya'ni taraflarning haqiqiy xohish-irodasini aks ettirmasdan, bitim tuzilgan vaqtda taraflar tomonidan nazarda tutilmagan huquqiy oqibatlarga olib kelgan bitim	misunderstanding of the rights and obligations of the parties arising from the transaction, ie a transaction that did not reflect the real will of the parties, which led to legal consequences not provided by the parties at the time of the transaction
<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Reklama</b>	bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va texnologiyalar to'g'risida har qanday shaklda va	special information disseminated in accordance with the legislation in any form, by any means about a legal or natural person, products, including about a trademark, service mark and technology, for the purpose of direct or

	har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot	indirect profit (income)
<b>Reklama beruvchi</b>	reklamani tayyorlash va (yoki) tarqatish uchun unga buyurtmachi bo'lgan shaxs	person who is the customer of advertising for its production and (or) distribution
<b>Reklama tayyorlovchi</b>	reklama tayyorlashni to'liq yoki qisman amalga oshiruvchi shaxs	person fully or partially producing advertising
<b>Reklama tarqatuvchi</b>	reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiruvchi shaxs	advertising distributor
<b>Termin</b>	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Maxsus sanoat zonasi</b>	boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud	territory in which a special regime of management, economic and financial activities is introduced
<b>Erkin iqtisodiy zona</b>	yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud	territory intended for the creation of new production facilities, the development of high-tech production, active involvement in the development of production of modern competitive, import-substituting, export-oriented finished industrial products, as well as ensuring the development of production, engineering and communication, road transport, social infrastructure and logistics services
<b>Maxsus huquqiy rejim</b>	maxsus iqtisodiy zonalar hududida investitsiya faoliyatini va boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun alohida shart-sharoitlarni belgilaydigan huquqiy normalar majmui	a set of legal norms establishing special conditions for the implementation of investment and other entrepreneurial activities in the territory of special economic zones
<b>Turistik-rekreatsion zona</b>	unda zamonaviy turistik infratuzilma obyektlarini (mehmonxona komplekslari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turistik	territory that is created for the implementation of investment projects to create modern tourist infrastructure (hotel complexes, cultural and recreational, shopping and

	ahamiyatdagi obyektlarni), maxsus faoliyat ko'rsatuvchi va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini turistlarga xizmat ko'rsatish maqsadida zarur shart-sharoitlarni ta'minlagan holda barpo etishga doir investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan hudud	entertainment and other tourist facilities), special functional and seasonal recreational areas with the provision of the necessary conditions for serving tourists
<b>Termin</b>	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index)</b>	Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan e'lon qilinadigan yillik hisobot. Birinchi marta 1979 yilda tuzilgan. 2004 yildan boshlab bu hisobot shu nomdagi indeksga asoslanadi	an annual report of the World Economic Forum. The first report was released in 1979. Since 2004, the Global Competitiveness Report ranks countries based on the Global Competitiveness Index.
<b>Biznes yuritish indeksi (Doing Business Index)</b>	bu kichik va o'rta biznesning ishbilarmonlik faolligini yaxshilaydigan yoki cheklaydigan qonunchilikni baholaydigan yillik hisobotdir	an annual report that assesses legislation that improves or limits the business activity of small and medium-sized businesses
<b>Suveren kredit reytinglar (Sovereign Credit Ratings)</b>	Fitch Ratings va S&P Global Ratings reytinglarini birlashtiradigan tizim	A system that combines Fitch Ratings and S&P Global Ratings
<b>Korrupsiyaning qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index)</b>	1995 yildan beri har yili Transparency International tomonidan e'lon qilinadigan ushbu indeks ko'plab mamlakatlarda "ekspertlar baholari va jamoatchilik fikri so'rovlari bilan aniqlangan davlat sektoridagi korrupsiyaning bashorat qilingan darajasi" bo'yicha o'zgarib turadi.	This index, published annually by Transparency International since 1995, ranges in many countries "on the predicted level of corruption in the public sector, defined by expert assessments and public opinion polls"
<b>Termin</b>	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi

<b>Fors-major</b>	favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar	emergencies and unavoidable circumstances under certain conditions
<b>Pandemiya</b>	yuqumli kasallikning bir mamlakat doirasidan chetga chiqib, boshqa mamlakatlarga ham tarqalishi	the spread of an infectious disease beyond one country to another
<b>Imtiyoz</b>	ma'lum toifadagi shaxslarga taqdim etiladigan qo'shimcha kafolatlar, yengilliklar	additional guarantees, benefits provided to certain categories of persons
<b>Bojxona to'lovi</b>	tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tishda undiriladigan to'lov	payment for the movement of goods across the customs border



## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 112 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizni yana-da obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. T.21. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 384 b.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, 2015.-302 b.

### I. Normativ huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2014. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova.;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 6 yanvardagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1931443>.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/2006789>.

6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 39-son, 446-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-son qarori // <https://lex.uz/docs/4215422>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi F-5464-son Farmoyishi // [lex.uz](https://lex.uz).

9. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://www.lex.uz/docs/4737511>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4838762>.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism / Mualliflar jamoasi. Prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYU, 2016. 312 b.

2. Imomov N. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar). – Toshkent: TDYUU, 2017. 150 b.

3. Tadbirkorlik (Biznes huquqi). Ma’sul muharrir H.Azizov. – Toshkent: TDYUU, 2018. 238 b. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 684 b.

### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

1. Catherine Elliott & Frances Quinn. Contract law. Longman (2011). (Elliott & Quinn series).

2. Cees van Dam. European tort law. Oxford University Press (2013) Second Edition published in 2013.

#### **V. Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://www.gov.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.edu.uz>
4. <http://www.norma.uz>
5. <http://www.gov.uz>
6. <http://www.my.gov.uz>
7. <http://www.parliament.gov.uz>
8. <http://www.ziyonet.uz>

## VIII. TAQRIZLAR

О.Оқюлов томонидан тайёрланган Тошкент давлат юридик университети ҳузуридаги Юридик кадрларни халқаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун тайёрланган “Фуқаролик – ҳуқуқий фанлар” модули ўқув услубий мажмуасига

### ТАҚРИЗ

Тошкент давлат юридик университети ҳузуридаги Юридик кадрларни халқаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун О.Оқюлов томонидан “Фуқаролик – ҳуқуқий фанлар” модули ўқув услубий мажмуаси тайёрланган.

Мазкур мажмуа Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–4732-сон, 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сон, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ–5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ–5847-сон Фармонлари, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3151-сон, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сон қарорларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган.

Мазкур ўқув услубий мажмуаси тингловчиларга фуқаролик ҳуқуқига оид фанларни ўқитиш методикаси, метод ва усулларини таҳлил этиш кўникмасини шакллантириш, шунингдек жамиятни демократлаштириш шароитида фуқаролик-ҳуқуқий фанлар тўғрисида қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курси тингловчиларининг билимларини такомиллаштириш, ушбу соҳа муаммоларини аниқлаш, таҳлил этиш ва баҳолаш кўникма ва малакаларини таркиб топтириш, шунингдек фуқаролик -

хукукий фанларнинг асосий масалалари юзасидан чуқур билим олишни таъминлаш ҳамда педагог кадрларнинг касбий билим, кўникма, малакаларини узлуксиз янгилаш ва ривожлантириш механизмларини яратиш, замонавий талабларга мос ҳолда олий таълимнинг сифатини таъминлаш учун зарур бўлган педагогларнинг касбий компетентлик даражасини ошириш, педагог кадрлар томонидан замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва хорижий тилларни самарали ўзлаштирилишини таъминлаш, ўқитишнинг инновацион технологиялари ва илгор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ҳамда ўқув жараёнини фан ва амалиёт билан самарали интеграциясини таъминлашга қаратилган фаолиятни ташкил этиш тўғрисида маълумотлар беради.

Ўқув услубий мажмуа замонавий талаблар асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касбий компетентлигини мунтазам ошириб боришни мақсад қилади. Бундан ташқари, ўқув услубий мажмуада ҳар бир мавзуга доир маъруза матилари, амалий машғулот материаллари, кейслар ва глоссарийлар ҳамда адабиётлар рўйхати келтирилган.

Ушбу мажмуа ўқув услубий мажмуага қўйилган талабларга тўлиқ жавоб беради ва уни оммавий эълон қилишга тавсия берамиз.

ТДЮУ Фуқаролик ҳуқуқи  
кафедраси доценти,  
юримдик фанлар номзоди

У.Шорахметова

ТДЮУ Фуқаролик ҳуқуқи  
кафедраси доценти в.б.,  
юримдик фанлар номзоди

Э.Мусаев